1. Rejalashni ommaga taqdim etish. Tizimni taqdim etishda o‘z ichiga olgan sifalarlarda bir qancha oylarni qidirish.

2. Takrorlanuvchi rejalash. Tizimning keying inkrementini rejalashning markazida turadi. Bu jamoa uchun ishning 2 yoki 4 xaftasi hisoblanadi.



2.8- rasm. Qat’iy dasturlashni rejalashtirish

Men allaqachon 2-bobda Scrum yaqinlashuvi haqida aytib o‘tganman. Men bu yerda eng oxirgi dasturlashda(XP) rejalashni to‘plamoqchiman. Bu “planning game” deb ataladi va u odatda yaratish jamoasini, xaridor vakillarini o‘z ichiga oladi. 2.8- rasmda rejalash o‘yinining bosqichlari tasvirlangan.

XPda gi tizimning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash tizimda o‘z ichiga olingan xususiyatlarni aks ettiruvchi foydalanuvchi hisobotlariga asoslangan. Loyihani boshlashda jamoa va xaridor hisobotlar to‘plamini aniqlashga harakat qilishadi. Ba‘zi funksionalliklar o‘tkizib yuborilishi aniq ,ammo bu bosqichda muhim emas.

Keyingi bosqich – baholash bosqichi. Loyiha jamoasi hisobotlarni o‘qiydi va muhokama qiladi va vaqtning biror qismi uchun ularga baho beradi. Nisbiy baholash ko‘pincha absolyut baholashdan osonroq. Odamlar ko‘pincha biror narsani bajarish uchun kerak bo‘ladigan vaqtni baholash uchun qiyinchilik topishadi. Bir safar baholash yakunlanadi ,jamoalar tasavvurdagi natija tushunchalarini yig‘ishadi.Murakkab hisobot 8 ta fikrdan, oddiysi 2 ta fir-tushunchaga ega bo‘ladi.

Bir martalik hisobotlar baholangan, nisbiy natija esa “tezlik” tasavvuridan foydalar talab qilinadigan umumiy natijaning birinchi bahosiga o‘giriladi. XP da”tezlik” – bu kuniga jamoa tomonidan belgilangan natijalar miqdori. Tezlikni baxolash taxminan ammo loyihani yaratish davomida yaxshilanadi. Siz tezlikni

baholashga ega bo‘lsangiz , person-days(inson-kun) dagi umumiy natijani hisoblay olasiz. Taqdim etish rejasi hisobotlarni yaxshilash va tanlashni o‘z ichiga olingan bo‘lib , u tizimni taqdim etish uchun ta‘minlangan xususiyatlarni aks ettiradi. Bu jarayonda xaridor hisobga olinishi kerak. Taqdim etish vaqti tanlangan va hisobotlar agar natijaviy baholash vaqt bilan o‘zgarmas bo‘lsa, imtihon qilinadi. Agar unday bo‘lmasa hisobotlar listga qo‘shiladi yoki o‘chirib tashlanadi.

Takrorlashni rejalash takror yaratish jarayonining birinchi bosqichi. Hisobotlar tanlangan takroriylik ,jamoa tezligi va takrorlashni ta‘minlash vaqtini aks ettiruvchi (odatda 2-3 hafta) hisobotlar soni bilan bajariladi. Qachonki takroriylik vaqtiga erishilsa, takrorlash bajariladi, hattoki agar hisobotlarning hammasi bajarilmagan bo‘lsa ham. Jamoa natijaga qo‘shilgan va bajarilgan hisobotlarni ko‘rib chiqadi. Keyin tezlik qayta hisoblanadi va u tizimning keyingi taqdim etish rejalashtirishida qo‘llaniladi. Har bir takrorlashning boshlanishida rejalash bosqichlari ko‘proq bo‘ladi. Yaratish vazifasi 4-16 soatni oladi. Vazifalarning barchasi ro‘yhatlangan qaytarish hisobotlarining barchasini bajarish uchun tugatilishi kerak.Keyin individual yaratuvchilar bajariladigan mahsus vazifalarni belgilaydilar. Har bir yaratuvchi o‘zining tezligini biladi.

Quyida vazifa taqsimotiga yaqinlashishdan ikki muhim foyda ko‘zlangan:

1. Butun jamoa vazifalar tahlilini ko‘rib chiqadi va ularda shuningdek qanday jamoa a‘zolari bajarishi haqidagi tushunchalarga ega bo‘lishadi.

2. Individual yaratuvchilar vazifalarni tanlaydilar;ularda shuningdek bu vazifalarga nisbatan egalik hissi bo‘ladi va bu ehtimol vazifani bajarish uchun ularni motivatsiyalaydi(undaydi).

Jarayon qayta ko‘rib chiqiladi. Bu bosqichda hisobot natijasining yarmi to‘ldirilgan bolishi kerak. Shuningdek, agar takrorlash 24 ta hisobot tushunchalari va 36 ta vazifani o‘z ichiga olsa, 12 ta hisobot va 18 ta vazifa bajariladi. Agar bunday holat bo‘lmasa, xaridorga maslahat beriladi va hisobotlar takrorlashdan o‘chirib yuboriladi.

Rejalashga murojaat bir qancha afzalliklarga ega, ya‘ni dastur rejalashtirilgandek taqdim etiladi. Agar ish ruxsat etilgan vaqtda tugatilmasa, XP

falsafasi –bu kengaytirilgan rasmga qaraganda ko‘proq ish faoliyati doirasini qisqartirish.Shunday qilib,ba‘zi holatlarda inkrement foydali bo‘lish uchun yetarli bo‘lmasligi mumkin.Faoliyatni kamaytirish xaridorlarga qo‘shimcha ish yaratishi mumkin agar ular tizim va boshqasini taqdim etish o‘rtasidagi ish amaliyotlarini o‘zgartirganlarida yoki to‘liq tugatilmagan tizimdan foydalanishga majbur bo‘lishganda.

Takrorlanuvchi rejalashdagi asosiy qiyinchilik bu ya‘ni xaridor zaruriyati va imkoniyatlariga bog‘liq. Amaliyotda, bu rejalashga qiyin bo‘ladi, xaridor ba‘zan boshqa ishga birinchilikni berishi shart. Xaridorlar an’anaviy loyiha rejalariga ko‘proq yaqin bo‘lishi mumkin va tezkor rejalash loyihasiga buyurtma berishi uchun qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Mustahkam yaratish jamoasi hisobotlarni birgalikda muhokama qiladi. Qayerda jamoa katta va geografik taqsimlansa , yoki qachon jamoa a‘zoligi tez o‘zgarsa , bu amaliy jihatdan har bir inson uchun imkonsiz bo‘ladi. Natijada katta loyihalar loyihalash menejmentiga an’anaviy murojaatdan foydalanib rejalashtiriladi.

2.5.Texnik usullarni baholash

Loyiha rejasini baholash qiyin. Yuqori darajali foydalanuvchi talabi izohi sifatida boshlang‘ich baholarni berishingiz kerak. Dasturni notanish kompyuterlarda ishlashitishingizga yoki yangi rivojlanish texnologiyalaridan foydalanishingizga to‘g‘ri kelishi mumkin. Loyihaga jalb qilinadigan mutahasislarlar va ularning mahorati balkim mavhum bo‘lar. Loyihaning dastlabki bosqichlarida juda ko‘p loyihaning rivojlanishi qanchaga baholanishini tahmin qilib bo‘lmaydigan noaniqliklar mavjud.

Hattoki baholash va bahoga zo‘r berishga bo‘lgan turli qarashlarni aniqligini belgilashda ham fundamental qiyinchilik bor. Loyiha baholari ko‘pincha bir tomonlama bo‘ladi. Baholash loyiha budjetini ifodalash orqali bajariladi va

loyihada budjet tuzilishi amalga oshirilgani uchun unga moslashadi. Budjetdagi loyiha bunga yaratilayotgan loyiha sifat qiymatlarida erishadi.

Taxmin qilingan baho ekperimentining afzalligini belgilashdan foydalanilmagan joydagi nazorat ostidagi loyihani baholash haqida men bilmayman. Nazorat ostidagi tajriba loyiha menejeriga baho tahmini ko‘rsatmas edi. Haqiqiy baholar keyin taxminiy baholarga taqqoslanar edi. Lekin tashkilotga dasturiy harakat va baholar taxmin qilinishi zarur:

1. Tajribaga asoslangan usullar. Kelgusi harakat talablarini tahmin baholash menejerning o‘tgan loyihalardagi tajribasiga va asosiy sohasiga bog‘liq. Asosiysi, natijaga erishish talablari qanday bo‘lishi haqida menejer chuqur mulohaza yuritadi.

2. Algoritmli baholash modeli. Bunday yondashuvda, mahsulot xususiyatlari, o‘lchami va jarayon xarakteri kabi jalb qilingan mutahasislarni tajribasi loyiha harajatini hisoblashda formulali yondashuvdan foydalaniladi.

Har ikki holatda, tog‘ridan-to‘g‘ri ishni baholash yoki loyiha va mahsulot harakterlarini baholash uchun mulohazangizdan foydalanishingiz kerak. Loyihani boshlang‘ich fazasida, bu baholashlarda hatolarning keng farqi bo‘ladi. Bir qancha loyihalardan yig‘ilgan ma‘lumotga asoslanib, Boehm et al.(1995) shuni aniqladiki, boshlang‘ich baholar ahamiyatli farq qiladi. Agar talab qilingan ishning dastlabki bahosi x oylik ish, tizim yetkazib berilgandagi haqiqiy ishning chegarasi 0.25x dan 4x gacha deb hisoblanishi mumkin. Rivojlantirishni(dasturni) rejalashtirish davomida, baholar yana va yana aniqroq bo‘ladi, loyiha rivojlanishlari kabidir (2.9 rasm).

Tajribaga asoslangan usullar menejerning o‘tgan loyihalardagi tajribasiga suyanadi va haqiqiy ish loyihadagi dasturni rivojlantirishga bog‘liq mashg‘ulotlarga sarflanadi. O‘ziga xos tarzda, alohida ishlab chiqilib eltib beriluvchilarni va rivojlantirilishi kerak bo‘lgan turli dastur komponenentalari va tizimlarni aniqlab berasiz. Bularni varoqqa yozasiz, individual ularni baholaysiz va to‘liq talab qilingan ishni hisoblaysiz. Bu odatda odamlarni ishni baholashga jalb etishda va har bir guruh azosini bahosini tushuntirib berishini so‘rashda yordam

beradi. Bu ko‘pincha boshqalar hisobga olmagan faktorlarni ko‘rsatadi va siz kelishilgan guruh bahosiga uni qo‘shasiz.

Tajribaga asoslangan usulning qiyinchiligi - yangi dastur loyihasi oldingisi bilan ko‘p o‘xshashlikka ega bo‘lmasligi mumkin. Dasturni rivojlantirish juda tez o‘zgaradi va loyiha notanish usullardan, web servis, COTSga asoslangan rivojlantirish yoki AJAX kabi. Agar siz bunday usullar bilan ishlamagan bolsangiz, sizning oldingi tajribangiz talab qilingan ishni baholashda yordam bermasligi mumkin, mahsulotga aniq narx chiqarish ya‘ni aniq baholarni mo‘ljallashni yanada qiyinlashtirib.



2.9- Algoritmli baholash modeli

Algoritmik baholash modeli loyiha o‘lchamlari tahminlari; Rivojlantirilayotgan dastur turi va boshqa jamoa, jarayon va mahsulot faktorlariga asoslangan mahsulot narxlarini oldindan bashorat qilishda matematik formuladan foydalanadi. Algoritmik baholash modeli narxlarni va tugatilgan maxsulot xususiyatlarini va haqiqiy tajribaga eng mos formulani topishni tahlil qilish orqali qurilishi mumkin.

Algoritmik baholash modellaridan asosan dasturni rivojlantirish narxlarini taxminiy qiymatlarini xosil qilishda foydalaniladi. Shunga qaramasdan, Boehm va uning hamkorlari(2000) bu modelning boshqa foydali jihatlarini muhokama qildi.

Bular dasturchi kompaniyalarda investorlarga tahminiy baholarni tayyorlash; hatarlarni aniqlashga ko‘maklashish uchun alternativ startegiyalar; qayta foydalanish haqida ishonchli qarorlar yoki buyurtmalar qabul qilish kabilardir. Dastur loyihasidagi ishni baholash uchun algoritmik model ko‘pincha oddiy fo‘rmulaga asoslanadi:

$$Ish=A*Size(o‘lcham)^B*M$$

A mahalliy tashkiliy tajribalarga bog‘liq o‘zgarmas faktor va rivojlantirilgan dasturning turi. O‘lcham yo dastur kodini o‘lchamini baholash yo funksiya yoki ilovada ifodalangan funksional baho. **B** darajaning qiymati odatda 1 va 1.5 o‘rtasida yotadi. **M** jarayon, mahsulot va rivojlanish xususiyatlari — dastur uchun bog‘liqlik talablari va rivojlantiruvchi jamoaning tajribasi kabilarni moslashtirish orqali olinadigan ko‘paytuvchi.

Yetkazib berilgan tizimdagi manba kodinining qatorlar soni (SLOC) ko‘plab algoritmli baholash modellarida fundamental o‘lchov birlik. O‘lchamni baholash boshqa loyihalarga o‘xshashligi bilan baholash, funksiya yoki ilova xususiyatlarini kod o‘lchamiga o‘zgartirish orqali baholash, tizim komponentalarini o‘lchamlarini kotegogoriyalash orqali baholash va berilgan komponenta havolasidan foydalanib komponenta o‘lchamini baholash yoki bu, oddiy, muhandislik mulohazasidan savol.

Ko‘plab algoritmli baholash modellarida darajali komponenta (yuqoridagi tenglikdagi **B** kabi) mavjud, tizimning o‘lchami va murakkanligiga bog‘liq bo‘lgan. Bu shu haqiqatni ko‘rsatadiki, narxlar loyiha o‘lchamining qatorlari bilan ko‘tarilmaydi. Dasturning o‘lchami va murakkabligi oshganda, qo‘shimcha narxlar kattaroq jamoalar orasida kommunikatsiya, murakkabroq tuzilma boshqaruvi, qiyinroq tizim integratsiyasi va shu kabilar tufayli kelib chiqadi.

Barcha algoritmli modellarda bir hil muammo bor:

1. Loyihada o‘lchamni baholash odatda dastlabki bosqichda qiyin, faqat ishni qanday bo‘lishi aniq bo‘lganda. Funksiya-nuqta va ilova-nuqta baholarini(keyinroq ko‘rasiz) ishlan chiqish oson kod o‘lchamini baholashdan ko‘ra lekin shunga qaramay odatda noaniq.

2. **B** va **M** ga qiymat berayotgan omillarning baholari subyektiv. Baholar bir odamniki boshqasidan farq qiladi, ularning kelib chiqishi va rivojlanitirilayotgan tizimga oid tajrobasiga bog‘liq tarzda.

Aniq kod o‘lchamini baholash lohida boshlang‘ich davrda qiyin chunki tugallangan dasturning o‘lchami baholash talab etilganda shakllanmagan dizayn qaroriga bog‘liq. Masalan, yuqori darajali ma‘lumot boshqaruvini talab etgan ilova yo o‘zining ma‘lumotlar boshqaruv tizimini amalga oshiri yoki tijorat malumotlar bazasi tizimidan foydalanishi mumkin. Dastlabki narxni baholashda, bajarilish talablarini yetarlicha yaxshi qondiradigan tijorat ma‘lumot bazasi bormi buni bilishingiz qiyin. Siz shuning uchun tizimgaqancha ma‘lumotni boshqaruvchi kod kiritilishini bilmaysiz.

Tizimni rivojlantirishda ishlatilgan dasturlash tili ham rivojtirilajak kodlar qatorining soniga ta‘sir etadi. Java kabi til C ishlatilgandagidan ko‘ra ko‘proq kodlar qatorini kerakligini toqazo etadi. Shunga qaramay, bu qo‘shimcha kod ko‘proq kompilyatsiya vaqtini tekshirish imkonini beradi shuning uchun yaroqlilik narxlari qisqartirilishi mumki. Qanday bu hisobga olinishi mumkin. Buning ustiga, oldingi loyihalardagi sezilarli miqdordagi kodlar qismidan qayta foydalanish mumkin va buni yodda tutish uchun o‘lcham bahosi moslashtirilishi kerak.

Algoritmli baholash modellari bir tizimni rivojlantirish uchun qancha ish talab etilishini aniqlashni tizimli usuli. Shunga qaramay, bu modellar murakkab va foydalanish qiyin. Juda ko‘p xususiyatlar va ularning qiymatini baholashda ancha noaniqlik chegaralari mavjud. Bu murakkabliklar kuchli foydalanuvchilarni ham gangitib qo‘yadi va shu sababdan algoritmli baholash modelining amaliy tadbiqi oz miqdordagi kompaniyalar bilan chegaralanib qolgan. Yana bir gangitadigan to‘siq algoritmli model o‘lchov (kalibratsiya) uchun zaruratligidir. Modeldan foydalanuvchilar o‘zlarining modellarini va xususiyat qiymatlarini shaxsiy tarixiy loyiharidan foydalanib o‘lchashi (kalibrlashi) lozim, xuddi bu mahalliy amaliyot va tajribani ko‘rsatganidek. Shunga qaramay, juda kam tashkilotlar o‘tgan loyilaridan yetarlicha modelli o‘lchashni qo‘llab quvvatlaydigan shakldagi ma‘lumotlarni yig‘ishgan. Algoritmli modeldan amaliy foydalanish, shuning uchun, model

parametrlari uchun chop etilgan qiymatlar bilan boshlanishi kerak. Bular o‘zlarining tashkilotiga qanday yaqin aloqadorligini bilish modelyer uchun amaliy jihatdan imkonsiz. Agar siz algoritmik narxni baholash modelidan foydalansangiz, yagona bahodan ko‘ra baholar guruhini (eng yomon, kutilgan, eng yaxshi) rivojlantirishingiz kerak va baholash fo‘rmulasini barchasiga qo‘llashingiz kerak.



2.10- rasm. COCOMO II modelini baholash

Baholar siz rivojlantirilayotgan dastur turini yaxshi tushunganingizda, mahalliy ma‘lumotdan foydalanib modelni kalibrlaganingizda yoki dasturlash tili va qurilmalar tanlovi oldindan aniqlanganda aniq bo‘lishga moyil bo‘ladi.

2.5.1. COCOMO II modeli

Dasturiy ta‘minot loyihasiga ketadigan xarakat grafig va sarf-xarajatlarni baxolash uchun bir nechta modellar taklif etilgan edi. Men bu yuerda muhokama

qilayotgan model COCOMO II. Bu dasturiy ta‘minot loyihalarining ko‘p miqdordan olingan ma‘lumotlar asosida yaratilgan empirik model. Bu ma‘lumotlar taxlil qilinib kuzatuvlarga mos keluvchi formulalar topilgan. Bu formulalar tizim o‘lchami va maxsulotni loyiha va jamoa omillarini tizimni rivojlantirishga ketadigan harakatlarga bog‘lab beradi. COCOMO II hujjatlari yaxshi rasmilashtirilgan va nomulkiy baxolash modeli.

COCOMO II modeli birinchi COCOMO narxni baxolashning modeli asosida ishlab chiqilgan, bu model asosan arginal koddan iborat edi (Boehm , 1981, Boehm and Royce, 1989). COCOMO II modeli tezkor rivojlantirish, dinamik tillar, tarkibiy rivojlantirish va ma‘lumotlar bazasiga asoslangan dasturlash kabi zamonaviy yondashuvlarni inobatga oladi. COCOMO II modeli II bo‘limda tasnif etilgan rivojlantirishning spiral modelini qo‘llab-quvvatlaydi va ko‘proq detallashtirilgan baxolashlarni bajaruvchi ost modellardan iborat.

COCOMO II modeli tarkibiga kiruvchi ost modellar (3.10 rasm):

1. *Amaliy tarkibli model.* Bu model ko‘p marotaba ishlatiladigan komponentlardan script yoki ma‘lumotlar bazasini dasturlashdan iborat tizimlarni rivojlantirishga ketadigan harakatlarni baxolash modeli.

Dasturiy ta‘minot o‘lchamini baxolash punktlarini belgilashga asoslanadi va kerak bo‘lgan harakatni baxolash uchun oddiy o‘lcham / unumdorlik formulasi ishlatiladi. Dasturdagi amaliy punklar miqdori – bu ko‘rasatiladigan aloxida ekranlarning miqdorini, taqdim ettilgan xisobotlar miqdorini, Obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tillarida (Java kabi) modular miqdori, til skriptini chiziqlari miqdori yoki ma‘lumotlar bazsini dastur kodini baxolashdur.

2. *Dastlabki dizayn modeli.* Bu model tizimning dastlabki bosqichlarida ishlatiladi, tizim dizayini talablarga asosan yaratilgan bo‘ladi. Baxolash men kirish qismida muxokama qilgan baxolashning standart formulasiga 7 ta ko‘paytuvchilar soddalsahtirilgan to‘plamiga asoslanadi. Baxolash funksianallik birliklariga asoslangan bo‘lib ular bunda dastlabki kodning chiziqlariga o‘zgartiriladi. Funksionallik birliklari dasturning ishlash sifatini tekshirishning tilga bog‘lanmagan usuli. Funksionallik birliklarining umumiy birliklarini xisoblash

uchun siz tizimdagi tashqi kirish va chiqish, foydalanuvchilarning o‘zaro muloqatlari, tashqi interfeyslari, ma‘lumotlar bazasining fayl va jadvallarni miqdorini baxolash yoki o‘lchamlarini bilishingiz kerak.

3. *Takroriy foydalanish modeli.* Bu model ko‘p ishlatiladigan component yoki aftomatik ravshda yaratiladigan dasturiy kodlarni birlashtirishga ketadigan harakatni xisoblash uchun ishlatiladi. U odatda post-arxitekturali model bilan ishlatiladi.

4. *Kuzatov arxitektura modeli.* Agar tizim arxitekturasi ishlab chiqilgan bo‘lsa dasturiy ta‘minot o‘lchamining aniq baxolash imkonmi bo‘ladi. Bunda yana yuqorida muhokama qilingan narxni baxolashni standart formulasi ishlatiladi. Lekin bunda kengaytirilgan 17 ta ko‘paytiruvchi to‘plami ishlatiladi: xodimlar qobilyati, maxsulot va loyiha xususiyatlari.

Albatta katta tizimlarda tizimning har-xil qisimlarini rivojlantirish uchun har-xil texnologiya ishlatirlishi mumkun va siz hamma qisimlarni bir xil aniqlikda baxolay olmaysiz. Bunday xolatlarda siz tizimning har bir qismi uchun tegishli ost modelni ishlatishingiz mumkun va natijarni murakkab baxolashga birlashtirishingiz mumkun.

Yaratuvchining tajribasi va qobilyati	**Juda past**	**Past**	**O‘rtacha**	**Yuqori**	**Juda yuqori**
ICASE rivojlanganligi va xususiyatlari	Juda past	Past	O‘rtacha	Yuqori	Juda yuqori
PROD (NAP/oy)	4	7	13	25	50

2.11- rasm. Amaliy qismlar unumdorligi

Amaliy tarkib modeli.

Amaliy tarkib modeli COCOMO II ga prototip loyihalar va mavjud komponentlarni birlashtirib dasturiy ta‘minot yaratish loyihalarida sarflanadigan harakatlarni baxolash uchun kiritilgan. Unda o‘lchangan amaliy punktlarni (bazida obyekt punktlar deb nomlanadi) baxolashga asoslanadi. Ular amaliy punktlar unumdorligi bo‘yicha standartbaxolanadi. Bunda baxolash har bir amaliy g‘oyani

rivojlantirish murakkabligiga ko‘ra moslashtiriladi (Boehm va boshqalar, 2000). Unumdorlik yaratuvchining tajribasi va qobilyatiga bog‘liq shuningdek dasturiy vositalar (ICASE) xususiyatlari odatda rivijlanishda. 2.11- rasmda COCOMO yaratuvchilari tomonidan taklif etilgan amaliy punktlarning unumdorligi darajalari ko‘rsatilgan (Boehm va boshqalar, 1995).

Amliy tarkib odatda dasturiy ta‘minotdan qayta foydalanishni o‘llaydi. Tiizmdagi amaliy punktlarini bazilarida ko‘p marotaba ishlatiladigan komponentlar bo‘lishi shubxasiz. Demak siz baxolashda qayta ishlashni xisobga olishingiz kerak. Shuning uchun tizim prototiplarini yarataishga sarflanadigan harakatni xosoblash uchun yakuniy formula quyidagicha:

PM (NAP (1 %reuse100)) PROD

PM bu odam harakatini oy hisobida. NAP bu yaratilayotgan tizimdagi amaliy punkitlarning umumiy miqdori “% reuse” qayta foydalanilgan kod miqdorini baxolash. PROD 2.11- rasmda ko‘rsatilgandek amaliy punkt umumdorligi. Model taqribiy baxolashni bajaradi, chunki unda qayta ishlatilishga ketgan qo‘shimcha xarakat xispbga olinmaydi.

Dastlabki dizayin modeli

Bu model loyihaning boshlang‘ich bosqichlarida ishlatilishi mumkun, tizimning batafsil arxitektura modeli tayyor bo‘lishidan oldin. Dizayinni dastlabki baxolanishi tanlash uchun foydalidur. Bunda siz foydalanuvchi tomonidan qo‘yilgan talablarni amalga oshirishning xar-xil usullarini taqqoslab ko‘rishingiz kerak bo‘ladi.

Dizayinning dastlabkki modeli shuni nazarda tutadiki, foydalanuvhuning talablari kelishilgan va tizimni loyihalashtirish jarayonining boshlang‘ich bosqichlari to‘liq yo‘lga qo‘yilgan. Bu bosqichda sizning maqsadingiz tez taxminiy smetani bajarishdur. Shuning uchun siz ishni kamaytirish harakatida bo‘lishingiz kerak, masalan ko‘p marotaba ishlatiladigan kodni kiritishga ketadigan harakatni 0 ga teng deb xisoblash kerak.

Bu bosqichda bajarilgan baxolash algoritmik modellar uchun standart formulasiga asoslangan, aynan:

$$Effort(kuch)=A*size(o‘lcham)^{B}*M$$

O‘zidagi ma‘lumotlarning katta to‘plamiga asoslanib Boehm A koyfisenti 2.94 ga teng bo‘lishini taklif qildi. Tizim o‘lchami KSLOC da berilgan, bu dastlabki kod chiziqlarining mingliklarda xisoblanadi. Dasturiy ta‘minotdagi funksional punktlar miqdorini baxolab siz KSLOC ni xisoblab chiqasiz. KSLOC ni tizimning dastlabki smeta o‘lchamini xisoblash uchun siz har-xil dasturlash tillarida yozilgan funksional punktlarni bog‘lovchi dasturiy ta‘minotni bog‘lash uchun standart jadvallardan foydalanasiz.

B exponentasi loyiha o‘lchami kattalashganda harakat kattalashishini aks ettiradi. Loyihaning yangiligi, rivojlanish moslashuvchanligi havf-hatarni aniqlash jarayonlari, rivojlantirish jamoasini birdamligi va tashkilot tajribasiga (2 bobda) binoan uning miqdori 1.1 dan 1,24 gacha o‘zgarishi mumkun. Xisoblashning bu turini afzalliklarini men COCOMO II post arxitektura modelini tasniflashda bu parametrlarni ishlatib ko‘rsatganman.

Xarakatni xisoblash bunda quyidagicha amalga oshiriladi:

$$PM=2.94*size^{(1.1-1.24)}*M$$

Bu yerda

$$M=PERS*RCPX*RUSE*PDIF*PREX*FCIL*SCED$$

M ko‘paytiruvchisi 7 ta loyiha va jarayon belgilariga asoslangan bo‘lib, baxolashni ko‘paytirishi va kamaytirishi mumkun. Dastlabki dizayn modelidagi atrebutlar: maxsulot ishonchliligi va murakkabligi (PCPX), qayta ishlatilish (RUSE), platformaning qiyinchiligi (PDIF), hodimlar qobilyatlari (PREX), grafik (SCED) va qo‘llab-quvvatlash vositalari (FCIL). Bu atrebutlarni men internetdagi kitobda tushuntiraman. Bu atrebutlar ahamiyatini jadvalda ko‘rishingiz mumkun, unda 1 ‘juda past’ va 6 ‘juda yuqorini bildiradi’.

Qayta ishlatish modeli.

2 bobda aytganimdek dasturiy ta‘minotni qayta ishlatish xozir juda keng tarqalgan. Eng katta tizimlar avvalgi ishchi loyihalarda ishlatilgan kodni katta miqdorini o‘z ichiga oladi. Qayta ishlatish modeli ko‘p marotaba ishlatiladigan

kodini birlashtirish yoki yaratishga ketadigan harakatni bgaxolash uchun ishlatiladi.

COCOMO II qayta ishlaydigan kodni ikkita turini ko‘rib chiqadi. ‘Qora quti’ kodi, bu kod uni tushunmagan yoki o‘zgartirilmagan holda ishlatiladi. ‘Qora quti’ kodini rivojlantirishga ketadigan kuch 0 ga teng deb xisoblanadi.

‘Oq quti’ kodi yangi kod yoki boshqa qayta ishlatiladigan komponentlar uchun moslashtirish kerak. Qayta ishlatilishi uchun harakat talab etiladi, chunki kod tizimda to‘g‘ri ishlashi uchun tushunilishi yoki o‘zgartirilishi kerak.

Ko‘p tizimlar 5– bobda aytilganidek tizim modellaridan olingan avtomarik ishlab chiqilgan kodni o‘z ichiga oladi. Model taxlillanadi (ko‘pincha UML da) va modelda belgilangan ob’yektlarni xosil qiluvchi kod yaratiladi. Qayta ishlatish modellarining COCOMO II sida bu yaratilgan kodni birlashtirishga ketadigan kuchni baxolash formulasi ishlatiladi:

PM_{auto}=(ASLOC*AT/100)/ATPROD// yaratilgan kodni baxolash

ASLOC bu qayta ishlatilgan kod chiziqlarining umumiy miqdori, buning ichida avtomatik ishlab chiqilgan kod.

AT bu avtomatik tarzda ishlab chiqilgan qayta ishlatilgan kod foyizi.

ATPROD bu bunday kodni birlashtirishda muhandislar unmdorligi.

Boehm va boshqalar (2000) ATPROD ni 2,400 ga teng deb xisoblashdi. Shuning uchun umumiy holda qayta ishlatilgan dastlabgi kod 20000 chiziq bo‘lsa va uning 30% avtomatik tarizda yaratilgan bo‘lsa yaratilgan koni birlashtirish kuchi quyidagicha xisoblanadi:

(20000*30/100)/2400=2.5 kuch oy xisobida // takroriy kod

Boshqa tizmlardan olingan qayta ishlatiladigan kodi birlashtirishga ketadigan kuchni xisoblash uchun alohida xisob kitob bajariladi. Qayta ishlatish modeli kuchni qayta ishlatilgan komponentlar miqdorini baxolashdan ajralgan holda xisoblamaydi. Qayta ishlatilgan kod chiziqlar miqdoriga asoslangan bu model yangi kod chiziqlarini ekvivalent miqdorini xisoblashni ta‘minlaydi (ESLOC). Bunda o‘zgartirilish kerak bo‘lgan qayta ishlatiladigan kod chiziqlari miqdori asos bo‘lib, bu ko‘paytiruvchi komponentlarni qayta ishlatish uchun siz

bajargan ish hajmini aks ettiradi. ESLOC hisoblash formulasi dasturiy ta‘minotni tushunishga, qayta ishlatiladigan kodga o‘zgartirish kiritishga va bu kodni tizimda birlashtirishga ketadigan kuchni hisobga oladi.

Quyidagi formula dastlabki kodni ekvivalent chiziqlarni miqdorini xisoblash uchun ishlatiladi:

ESLOC=ASLOC*AAM

ESLOC bu yangi kod chiziqlarining ekvivalent miqdori.

ASLOC bu o‘zgartirilishi kerak bo‘lgan komponentlardagi kod chiziqlarining miqdori.

AAM bu adaptatsiyani nazorat qiluvchi ko‘paytiruvchi.

Qayta ishlatish xech qachon bo‘sh bo‘lmaydi va xech qanday qayta ishlatishning ilojisi bo‘lmaganda ham qandaydur harajatlar bo‘ladi. Lekin qayta ishlatish sarflarining kamayishi qayta ishlangan kod miqdorining ko‘payishidur. Kod chiziqlarining katta miqdori uchun o‘rnatilgan baxo tarqatilgan. Adaptatsiyani nazorat qiluvchi ko‘paytiruvchisi (AAM) kodni qayta ishlatishga kerak bo‘lgan qo‘shimcha kuchni nazorat qilish uchun kerak.

Qisqacha qilib aytganda AAM bu 3 ta komponentniing yig‘indisi:

1. Adaptatsiya komponenti (AAF deb nomlanadi) qayta ishlatiladigan kodga o‘zgartirish kiritishga ketadigan sarf-xarajatlarni aks ettiradi. Adaptatsiya komponenti o‘z ichiga sub komponentlarni oladi, ular dizayn kod va itegratsiya o‘zgarishlarini xisobga oladi.

2. Tushunish komponenti (SU deb nomlanadi) qayta ishlatiladigan kodni tushunishga va muhandisni kod bilan do‘stono munosabatiga ketadigan sarf-xarajat. SU notuzilmaviy kod majmuasi uchun 50 dan abyektga yonaltirilgan yaxshi yozilgan kod uchun 10 gacha bo‘ladi.

3. Baxolash (AA deb nomlangan) omili qayta ishlatish haqida qaror qabul qilish uchun ketadigan harakatlar. Shunday qilib, kod yana qayta ishlatilishi haqida qaror qabul qilish uchun taxlil bajarilishi lozim va bu narxga AA deb kiritilgan. Talab qilingan harakatni taxlil miqdoriga qarab AA 1 dan 8 gacha o‘zgaradi.

Agar kodni adaptatsiyasi avtomatik tarizda bajarilishi munkun bo‘lsa bu kerak bo‘lgan harakatni kamaytiradi. Shuning uchun siz avtomatik adaptatsiya qilingan kod % ni (B) va ASLOC ni moslashtirib baxolashni nazorat qilishingiz mumkun. Yakuniy formula quyidagicha bo‘ladi:

ESLOC=ASLOC*(1- AT100)*AAM

ESLOC xisoblanishi bilanoq siz baxolashni standart formulasini qo‘llab talab qilingan to‘liq harakatni hisoblashingiz mumkun bo‘ladi, bu yerda o‘lcham parametri=ESLOC. Keyin buni xisoblab chiqqan avtomatik yaratilgan kodni birlashtirishga ketgan harakatga qo‘shib to‘liq harakatni xisoblaysiz.

Post arxitektura qatlami

Bu model COCOMO II modellari ichidan eng ko‘p to‘xtalgani. U tizim yaroqli bo‘lishi uchun boshlang‘ich arxitekturaviy loyihada qo‘llaniladi. Shuning uchun subtizim strukturasi ma‘lum bo‘ladi. So‘ng tizimning har bir qismi uchun baholash amalga oshirilsa ham bo‘laveradi.

Baholashni tashkil etish post- architecture level da ishlab chiqilgan bo‘lib, u dastlabki loyihalash bosqichida ishlatiladigan formula bilan ayni bir xil:

$$PM=A*size^{B}*M$$

Jarayondagi bu bosqichda loyiha o‘lchami aniqlikda baholanadi. Quyidagi uchta parametrlarsan foydalanish orqali kod o‘lchamini baholashni bajarish mumkin:

1. Keltirilgan yangi kod (SLOC) qatorlarini umumiy miqdorini baholash.

2. ESLOC kod qatorlarining ekvivalent soniga asoslangan reuse qiymatlarini baholash.

3. Tizim talablarini o‘zgarishi sababli o‘zgartirilgan kod qatorlari miqdorini baholash.

KSLOC da umumiy kod miqdorini o‘lchash uchun ushbu parametrlar qiymatlarini qo‘shish mumkin. Baholashdagi oxirgi komponenta – o‘zgartirilgan kod qatorlar miqdori- doim o‘zgaruvchi dastur talablarini aks ettiradi. Bu qo‘shimcha kodni qayta ishlashni boshqaradi.

B eksponentasi loyiha murakkabligi bosqichlariga bog‘langan. Loyihalar qanchalik murakkab bo‘lsa, tizim qiymatining oshishiga ta‘siri shunchalik yuqori bo‘ladi. B eksponenta qiymati shuningdek 5 ta faktorga asoslangan, 2.12- rasmda ko‘rsatilgandek, bu faktorlar 0 dan 5 gacha bo‘lgan olti –o‘rinli jadvalda baholanadi va “0” “extra high” “5” “ very low” . B ni hisoblash uchun baholashlar qo‘shilishi kerak, ularni 100 gacha bo‘lib, natijani 1.01 ga qo‘shish kerak.

Misol uchun Biror bir tashkilot biror sohada loyiha olib boryapti, ya‘ni kichik bir tajrib ustida. Loyiha mijozi jarayonni aniqlamadi. Yangi bir birlashma bu tizimni amalga oshirish uchun birgalikda muhokamaga qo‘yadi. Tashkilot yaqinda dasturni yaxshilash jarayonini o‘rniga qo‘yadi. Eksponentani hisoblashda foydalaniladigan qiymatlar:

1. Precedentedness. Bu tashkilot uchun yangi loyiha.

2. Development flexibility. Jarayonda mijoz zaruriyati bo‘lmaydi,shuning uchun tashqi yuklangan o‘zgarishlar bo‘ladi.

Mezon	Tushuntirish
Precedentedness	Bu turdagi loyiha bilan tashkilotning avvalgi tajribasini aks ettiradi. Juda past bo‘lsa xech qanday tajriba yo‘qligini bildiradi: juda balant bo‘lsa korxona bu soxa bilan to‘liq tanish ekanligini bildiradi.
Rivojlanishning moslashuvchanligi	Rivojlanish jarayonidagi moslashuvchanlik darajasini aks ettiradi. Juda pasti jarayon ishlatilayotganini bildiradi, juda yuqorisi mijoz umumiy maqsadlar qo‘yganini bildiradi.
Arxitektura va havf hatar qarori	Havf-hatarni baxolash taxlilini aks ettiradi. Juda pasti to‘liqmas taxlilni bildiradi, juda yuqorisi havf-hatar darajasini to‘liq taxlilini bildiradi.
Jamoa birdamligi	Jamoa bir-birini tushunish darajasi va birga ishlashini aks ettiradi. Juda past juda og‘ir muloqatlarni bildiradi juda balandi aloqada muammosi yoq

	integratsionallangan va samarador jamoani bildiradi.
Jarayon yetukligi	Tashkilot saviyasini aks ettiradi. Buni xisoblash uchun SMM anketa so‘ro‘vi ishlatiladi, baxoni bilish uchun 5 SMM ni ayrib tashlash kerak.

2.12- rasm. Post-architecture modelida eksponentani hisoblashda foydalaniladiga faktorlar jadvali

3. Architecture/risk resolution (arxitekturaviy qaror). Eng quyi 5 da baholangan keltirilgan. U yerda risk analizlari keltirilmagan.

4. Team cohesion(jamoa mustahkamligi). Nominal 3 da baholangan.

5. Process maturity (Oxiriga yetgan jarayon). Nominal 3 deya baholangan.

Bu qiymatlarning summasi 16. Ulni 100 gacha bo‘lib, natijani 1.01 ga qo‘shgandagi B eksponentaning o‘zgartirilgandagi qiymati 1.17.

Umumiy natijaviy baholash 17 ta mahsulot to‘plamidan foydalanish orqali takomillashtirilgan va tashkiliy attributlar (cost drivers) dastlabki loyiha modelida foydalanilgan 7 ta atributlarga qaraganda ko‘proqdir. Bu attributlar uchun qiymatlarni baholash mumkin.

2.12- rasmda narxni yurgizuvchi attributlar baholash natijasiga qanday ta‘sir ko‘rsatishi ko‘rsatilgan. Dastlabki misolda eksponenta uchun 1.17 qiymat olingan edi va RELY, CPLX, STOR, TOOL, va SCED lar loyihadagi cost driver kalitlardir. Barcha cost driverlar 1 bo‘lgan nominal qiymatga ega, shunung uchun ular natijani hisoblashga ta‘sir ko‘rsatmaydi.

2.13- rasmda cost driverlarning maksimum va minimum qiymati va ular natijani baholashga qanday ta‘sir ko‘rsatishi keltirilgan. Yana bu yerda cost driverlar natijaviy baholashni boshqarishi uchun yuqori qiymatlar ham ko‘rsatilgan ya‘ni u yerda boshlang‘ich baholash uch martaga qaraganda ko‘proq, eng quyi qiymatlar baholash haqiqiysidan taxminan 1-3 ga qisqartirilgan.

Namuna baxosi	**1.17**
Tizim o‘lchami(qayta ishlatish va talablar	128,000 DSI

o‘zgarishi omillari)	
Dastlabki COCOMO bepul	730 odam kuchi oyga nisbatan
Ishonchlilik	Juda yuqori, ko‘paytiruvchi=1.39
Murakkablilik	Juda yuqori, ko‘paytiruvchi=1.3
Xotira cheklovlari	Yuqori, ko‘paytiruvchi=1.21
Foydalanish vositasi	Past, ko‘paytiruvchi=1.12
Jadval	Jadal, ko‘paytiruvchi=1.29
COCOMO ni belgilangan baxolash	2,306 odam kuchi oyga nisbatan
Ishonchlilik	Juda past, ko‘paytiruvchi=0,75
Murakkablilik	Juda past, ko‘paytiruvchi=0,75
Xotira cheklovlari	O‘rtacha, ko‘paytiruvchi=1
Foydalanish vositasi	Juda yuqori, ko‘paytiruvchi=0,72
Jadval	O‘rtacha, ko‘paytiruvchi=1
COCOMO ni belgilangan baxolash	295 odam kuchi oyga nisbatan

2.13– rasm. Narxni yurgizuvchi atrebutlar baxolash natijasiga ta‘siri

2.5.2. Loyiha davom etish muddati va xodimlar

Loyihaning umumiy qiymatini baholashda loyiha menejerlari dasturni rivojlantirish qancha muddatda olib borilishini va loyihada xodimlar qachon ishga muhtoj bo‘lishlarini baholashlari shart. Tashkilotlar qisqaroq jadvallarni talab qilishyapti, shuning uchun ularning mahsulotlari bozorga ularning raqobatdoshlaridan oldin olib chiqilishi kerak.

COCOMO modeli loyihani tugatish uchun talab qilingan calendar vaqtni baholovchi formulani o‘z ichiga oladi:

$$TDEV=3*(PM)^{(0.33+0.2*(B-1.01))}$$

TDEV- bu loyiha uchun nominal jadval,calendar oylarida, loyiha jadvaliga bog‘liq biror ko‘paytiruvchi.

PM- COCOMO modelida hisoblangan natija.

B-murakkab bog‘langan eksponenta, muhokama uchun 2.5.2 seksiyaga qarang.

Agar B = 1.17 va PM = 60 so‘ng

$$TDEV=3*(60)^{0.36}=13 \text{ oy}$$

Shunday qilib,nominal proyekt jadvali COCOMO modeli tomonidan oldindan aytib o‘tilgan va bu jadval har doim ham bir xil bo‘lmaydigan proyekt rejasini talab qilgan. Bu shunday talabki,dasturni ta‘minlash uchun yaratilgan bo‘lishi mumkin. Agar jadval qisqacha bayon qilinsa, bu proyekt uchun talab qilinadigan natijalarni orttiradi. Bu SCED ko‘paytiruvchisi tomonidan hisobga kiritilgan.

Loyiha TDEV ni 13 oy deb baholagan, ammo asosiy jadval 11 oyni talab qilgan. Bu taqdimotda jadvalni qisqartirish (siqish) taxminan 25%. SCED ko‘paytiruvchisi uchun qiymatlardan foydalanish Boehm jamoasi tomonidan chiqarilgan, jadvalni qisqartirishning natijaviy ko‘paytiruvchisi-1.43. Shuning uchun asosiy natija talab qilinadi, agar ushbu tezlashtirilgan jadvalga nominal jadvalga ko‘ra dasturni ta‘minlash uchun talab qilingan natijaga qaraganda 50% ko‘proq duch kelinsa.

Bu yerda biror loyiha ustida ishlayotgan bir qancha odamlar o‘rtasida murakkab bog‘liqlik bor, natija loyihaga bag‘ishlanadi va loyiha yetkazib berish jadvali. Agar 4 ta odam bir loyihani 13 oyda bajarsa (i.e., 52 person-months of effort), birdan ko‘proq shaxsni qo‘shish orqali bu loyihani 11 oyda tugatish mumkin (55 person-months of effort).

Shu sababdan, odamlarni qo‘shish jamoa a‘zolarining mavjudlik mahsuldorligin qisqartirib yuboradi, shuning uchun qo‘shilgan natijani ko‘paytirish

bir shaxsga qaraganda ozroq. Jamoa a‘zolari boshqa odamlar orqali tizim qismlari o‘rtasida interfeysni aniqlash va xabar qilishda ko‘proq vaqt sarflashadi. Xodimlar sonini qo‘shish (misol uchun) shuningdek loyihani ikki baravar qisqartirish vaqt davomiyligini anglatmaydi. Myers (1989) bu jadvalni tezlashish muammolarini muhokama qiladi. U muammolarni hal etadigan loyihalarni taklif qiladi, agar ular ishni tugatish uchun yetarli vaqtsiz dasturni rivojlantirishga harakat qilishsa.

Umumiy natijani bo‘lish orqali loyiha uchun talab qilingan odamlar sonini osonlik bilan baholab bo‘lmaydi. Odatda,kichik sonli odamlar boshlang‘ich loyihani topshirish uchun loyihani boshlash kerak bo‘ladi. Loyihani tez sur’atda qurishda xodim loyiha jadvali bilan o‘zaro munoosabatda bo‘lishi ko‘rsatiladi. Loyiha menejerlari esa loyihani bajarish davomida ishga juda ko‘p xodimlarni qo‘shishdan chetga qochishlari kerak.

Kalit tushunchalar

- Tizimni baholash shunchaki baholangan qiymatlarga bog‘liq emas va foyda rivojlangan kompaniyadan talab qilinadi.Tashkiliy faktorlar shuni anglatadiki,narx (baho) ko‘tarilgan riskni o‘rnini qoplash uchun oshiriladi yoki raqobatbardosh ustunlikni qo‘lga kiritish uchun kamaytiriladi.
- Dastur ko‘pincha shartnomani qo‘lga kiritish uchun baholanadi va amaliy tizim keyinchalik baholangan narxni qanoatlantirishi uchun o‘zgartiriladi.
- Loyihani jadvallash loyiha rejasi qismining turli grafik taqdimotlarini yaratishni taqozo etadi.
- Loyiha ustuni harakatlar to‘plami yoki kutilayotgan natija. Har bir ustunda progressning rasmiy xabari menejmentga taqdim etilishi kerak. Ta‘minlovchi esa ish mahsuloti bo‘lib, u loyiha xaridori tomonidan ta‘minlanadi.
- XP rejalsh o‘yini loyihani rejalashdagi butun jamoani taqozo etadi. Reja incremental rivojlantirilgan va agar muammo vujudga kelsa, u shunday o‘zgartiriladiki, amaliy dastur qisqartiriladi.
- Dastur uchun baholash texnikalari tajribaga asoslangan bo‘lishi mumkin, menejerlar natijaga baho berishadi,yoki algoritmik natija boshqa baholangan loyiha parametrlaridan hisoblanadi.

- COCOMO II qiymatlash modeli o‘sgan algoritmik qiymat modeli bo‘lib, u loyiha,mahsulot,apparat qiemni oladi va xodimlar tayyorlagan narx bahosi hisobiga attributlanadi.

Qo‘shimcha o‘qish uchun

Software Cost Estimation with COCOMO II. Bu COCOMO II modelidagi eng so‘nggi kitob. Unda modelning tugatilgan ta‘riflari ko‘p misollar bilan keltirilgan va bu kitob dasturlarni o‘z ichiga oladi.O‘qish uchun to‘liq tafsilotlar berilgan. (B. Boehm et al., Prentice Hall,2000.).

(B. Boehm et al., Prentice Hall,2000.). Amaliy maqola bo‘lib, unda loyihani baholashning amaliy qiyinchiliklari muhokama qilingan. (P. Armour, Comm.ACM, 45 (11), November 2002.).

Agile Estimating and Planning. Bu kitob keng qamrovli rejalashga asoslangan. Shunday qilib u o‘z ichiga yaxshi, umumiy loyihalashni rejalashtirish maqolalarini oladi.

“Achievements and Challenges in Cocomo-based Software Resource Estimation” u maqola COCOMO II modeli tarixini taqdim etadi, bu modelning variantlarini muhokama qiladi. (B. W. Boehm and R. Valeridi, IEEE Software, 25 (5), September/October 2008.) http://dx.doi.org/10.1109/MS.2008.133.

Nazorat savollari:

1. Qanday holatlarda biror kompaniya dastur narxini baholashga qo‘shimcha maqbul foydaga qaraganda dastur tizimi uchun ko‘p yuqori narx qo‘yishi mumkin?

2. Nega loyihani rejalash jarayoni takrorlanuvchi va nega reje dastur loyihasi davomida davomiy ko‘zdan kechirilishi kerakligini tushuntirib bering!

3. Biror dastur loyihasi rejasidagi har bir qismlarning maqsadini qisqacha turshuntiring!

4. Narxni baholash xatarli, baholashdan qat’i nazar texnika foydalanadi.Qisqara olgan narxni baholashdagi risk(tavakkal)da to‘rtta yo‘lni taklif qiling!

5 \ 2.14-rasm vazifalar sonini,ularning davomiylik vaqtini birlashtiradi. Loyiha jadvalini ko‘rsatuvchi diagramma chizing!

6\ 2.14-rasm loyiha harakatlari uchun vazifalar davomiylik vaqtini ko‘rsatadi. Taxminga ko‘ra, jiddiy muvafaqqiyatsizlik sodir bo‘ladi va 10 kun qo‘yilishini o‘rniga T5 vazifa uchun 40 kun olinadi. Loyiha qanday qayta tashkil qilinganini ko‘rsatuvchi diagramma chizing!

7. XP rejalash o‘yini maqolalarni amalga oshirishdagi rejalash tushunchasiga asoslangan bo‘lib tizim talablarini taqdim etadi. Dastur bajarilganda ushbu yaqinlashish bilan ehtimoldagi muammolarni tushuntiring!

8. Dastur menejeri xavfsiz-kritikal dastur tizimini rivojlantirishda javobgar bo‘lib, bu dastur kasallikdan azob chekayotgan bemorlarni davolash uchun ximiya terapiya mashinasini nazorat qilish uchun loyihalangan bo‘lsin. Bu tizim mashina ichiga o‘rnatilgan va 256 Mbayt xotirali protsessorni ishga tushirish kerak. Bu mashina bemordagi kasallik tafsilotlarini egallash uchun bemor MB(MA‘lumotlar ba‘zasi) bilan aloqa qiladi, davolashdan so‘ng ta‘minlangan radiatsion doza qayd etiladi va MB dagi boshqa davolashlar ko‘rib chiqiladi.

COCOMO metodi bu tizimni rivojlantirish uchun talab qilingan natijalarni baholashda qo‘llaniladi va 26 person-month qiymati hisoblanadi. Barcha narx ko‘paytiruvchilari bu baholashni bajarishdagi 1 ga yig‘iladi.

Nega bu baholash loyihani,xodimlarni va mahsulotlarni tashkiliy faktorlarni hisobga kiritish uchun o‘zgartirilishi kerakligini tushuntiring! Boshlang‘ich COCOMO baholashga ta‘sir ko‘rsatuvchi 4 ta factor taklif qiling. Nega bu faktorlar qo‘shilishini tasdiqlang!

Masala	Doimiylik(kunlarda)	Qo‘shuvchilar
T1	10	
T2	15	T1
T3	10	T1, T2
T4	20	
T5	10	
T6	15	T3, T4
T7	20	T3
T8	35	T7
T9	15	T6
T10	5	T5, T9
T11	10	T9

T12	20	T10
T13	35	T3, T4
T14	10	T8, T9
T15	20	T2, T14
T16	10	T15

2.14- rasm. Masalalarni rejalashtirish

9. Ba'zi dasturiy loyihalarning kod qismlari juda katta ya‘ni millionlab belgilar yozishni o‘z ichiga oladi. Nima uchun COCOMO modelini juda katta tatbiq qilinganidi, yoki yuqori baholashda model qanday harakat qilish tushuntiring.

10. Talablar noaniq ekanligini bilib va ular mijozlar tomonidan talab keyinchalik o‘zgarishlar uchun ko‘proq haq to‘lashlari mumkin, u bizga dasturiy mahsulot uchun past narxda shartnoma tuzishlari uchun ma‘qulmi?

3. SIFAT BOSHQARUVI

Dastur sifati bilan bog‘liq muammolar 1-katta dastur tizimining rivojlanishi bilan 1960-yilda kashf qilingan va 20-asr davomida dastur muhandisligini bezovta qilish davom etgan. Dastlabki dasturlar pardan va ishonchli bo‘lmagan shuningdek ta‘mirlashda ham qiyin bo‘lgan. Bu holatdan qoniqmaslik natijasida, yuqori darajadagi dastur boshqaruvini rasmiy uslublarda foydalanishga sabab bo‘lgan. Mana shu yuqori darajadagi dastur texnikalari yangi dastur texnologiyalari va yuqori dasturlarning umumiy darajada o‘sishiga sabab bo‘ldi.

Dastur tizimlari uchun yuqori darajadagi boshqaruv dastursini 3 ta asosiy munosabati mavjud:

1. Yuqori darajadagi boshqaruv, tashkiliy jarayonlar va standartlarning qobig‘iga asos solinishi bilan aloqador hisoblanadi ya‘niki, yuqori darajadagi dasturga sabab bo‘ladi. Ma‘nosi shuki, yuqori boshqaruv jamoalarni rivojlangan jarayonlar dastursidan foydalanishi aniqlash uchun majburiyatni o‘z zimmasiga olishlari kerak.

2. Yuqori darajadagi boshqaruv asosiy jarayonlar tekshiruvlar arizalarni o‘z ichiga oladi. Bu rejalashtirilgan jarayonlar ketma-ket sodir bo‘ladi va ishonch hosil qiladi. Loyixani ishlab chiqarish hajmi standartlar bilan talabga javob beradi va loyihaga tegishli bo‘ladi.

3. Yuqori darajadagi boshqaruv loyiha uchun yuqori darajadagi rejani bajarish bilan ham aniqlanadi. Yuqori darajadagi reja loyiha uchun yuqori maqsadlarni mo‘ljallashi kerak, shuningdek qaysi jarayonlar va standartlardan foydalanishni aniqlash kerak.

“Yuqori darajadagi ishonch” va “Yuqori darajadagi boshqaruv” ishlab chiqarish sanoatida keng foydalaniladi. “Yuqori darajadagi ishonch” jarayonlar va standartlarning ta‘rifi hisoblanadi shuningdek u ishlab chiqarish jarayonida yuqori darajadagi jarayonlarni tanishtirishda va yuqori darajadagi maxsulotlarga sabab bop’ladi.

Dastur sanoatida turli kompaniyalar va sanoat qurishlari yuqori darajadagi kafolat va boshqaruvlarni turli yo‘llarda taqdim etishadi. Ba‘zan yuqori darajadagi kafolat ishlab chiqarish ta‘rifi jarayonlar va standartlaring soddalashtirilgan shakli hisoblanadi va dasturni yuqori darajali qo‘lga kiritish maqsad qilionadi. Boshqa tomondan yuqori kafolat barcha tasdiq va yaroqliligini o‘z ichiga oladi av maxsulot rivojlangan jamoalar orqali qo‘ldan qo‘lga o‘tgandan keyin murojaat qilinadi. “Yuqori darajadagi boshqaruv” esa sanoat dastursida keng foydalanilmaydi.



3.1- rasm. Sifat boshqaruvi va dasturiy ta‘minot rivojlanishi

Sifatni boshqarish dasturiy ta‘minot yaratish jarayonida xech narsaga bog‘liq bo‘lmagan tekshiruvni ta‘minlaydi. Sifatni boshqarish jarayoni loyiha natijalarini tashkiliy standart va maqsadlarga mos kelishini tekshiradi (3.1-rasm). Sifatni kafolarlash(SK) jamoasi yaratuvchilar jamoasida alohida bo‘lishi kerak, ular dastruriy ta‘minotni obyektiv tekshirish kerak. Bunda ular dasturiy ta‘minotni sifati holati haqida uni yaratish jarayonidan jarayon bosimida bo‘lmagan holda o‘z fikrini bildirin boradi.

Aslida sifatni boshqarish jamoasi birorta yaratuvchi guruhi bilan bog‘liq bo‘lmasligi va butun tashkilot miqyosida sifatni boshqarishga javobgar bo‘lishi kerak. Ular mustaqil bo‘lib loyiha boshqaruvchisidan yuqori bo‘lgan raxbaryatga xisobot berishlari kerak. buning sababi shundaki loyiha boshqaruvchilari loyihani byudjet va grafigiga rioya qilishi shart. Agar muammo paydo bo‘lsa ular jadvalga mos kelishi uchun maxsulot sifatidan kechishlari mumkin. Sifatni boshqarish bo‘yicha mustaqil jamoa sifatning tashkiliy maqsadlari byudjet yoki vaqt

yetmasligi xisobiga putur yetmasligini kafolatlaydi. Kichik tashkilotlarda buning ilojisi yo‘q Sifatni boshqarish va dasturiy ta‘minotni yaratish vazifalarini bir shaxs amalga oshirishi kerak.

Sifatni rejalashtirish bu loyiha uchun sifat rejasini ishlab chiqish jarayonidur. Sifat rejasi dasturiy ta‘minot sifatini va uni baxolash tartibini belgilash kerak. aniq tizim uchun “yuqori sifat”ni belgilaydi. Bunday qilinmasa muhandislar maxsulotning qaysi atrebutlari eng muhim sifat harakteristikalarini aks ettirishi haqaida har-xil va bazida qarama-qarshi takliflar bildirishi mumkin. Sifatni rasmiy rejalashtirilishi rivojlanish jarayonlarini rajalashtirishning ajralmas qismi bo‘ladi. Tezkor usullar sifatni boshqarishda kamroq rasmiy yondashuvdan foydalanadi.

Hamfri (1989) dasturiy ta‘minot boshqaruvi bo‘yicha yozgan kitobida sifatni rejalashtirish uchun tuzilma shaklini ishlatishni taklif qiladi. Buning ichida:

1. Maxsulotni kiritish. Maxsulot uning mo‘ljallangan bozori va maxsulot kutulayotgan sifatini tasnifi.

2. Maxsulotni rejalashtirish. Maxsulotni chiqarishning sanalari va tarqatish va xizmat ko‘rsatishni rejalashtirish.

3. Maxsulotni ishlab chiqarishni boshqarishda ishlatish kerak bo‘lgan ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish jarayonlarini va standartlarni tasniflari.

4. Sifat maqsadlari. Sifat maqsadlari va maxsulotga bo‘lgan rejalar, buning ichida maxsulot sifatining asosiy atrebutlarini belgilash va asoslab berish.

5. Hav-hatar va havf-hatarlarni boshqarish. Maxsulot sifatiga ta‘sir etishi mumkin bo‘lgan asosiy havf-hatarlar va ularni bartaraf etish bo‘yicha choralar.

Ishlab chiqarilayotgan tizimning o‘lchami va turiga ko‘ra loyihani umumiy rejalashtirish doirasida ishlab chiqilgan sifat rejalari detallarida farqlanadi. Sifat rejalarini yozishda siz ularni qisqaroq yozishingiz kerak. Hujjat ortiqcha uzun bo‘lsa odamlar uni o‘qimaydi va sifat rejasi ko‘zda tutgan maqsadlarga erishilmaydi.

Bazi odamlar o‘ylaydiki dasturiy ta‘minot sifatiga erishish uchun yaratuvchi jamoalar tashkiliy standartlarga asoslangan yo‘naltiruvchi jarayonga rioya qilish yetarlik bo‘ladi. Ular buni shu bilan isbotlashadiki standartlar dasturiy

ta‘minotning amalda yaxshi bajarilishini aks ettiradi va bu amalyot yuqori sifatli maxsulot ishlab chiqarishga olib keladi. Amalda men o‘ylaymanki sifani boshqarish standartlari ko‘p qog‘ozboslikni talab qiladi.

Standart va jarayonlar muhum ahamiyatga ega lekin sifat bo‘yicha boshqaruvchilar shuningdek “sifat madaniyati” ni yaratishga yo‘nalgan bo‘lishlari kerak, bunda dasturiy ta‘minotni ishlab chiqishga javobgar har-bir javobgar shaxs maxsulot sifatining yuqori sifatiga erishishga harakat qilishi kerak. Ular jamoani shunga undash kerakki har bir a‘zo o‘z ishini sifatiga javobgarligini xis qilishi va sifatni yaxshilashga yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishi kerak. Standart va protseduralar sifat boshqaruvining asoslari bo‘lsa ham tajribali sifat boshqaruvchilari standartlarda aks ettirilmaydigan dasturiy ta‘minot sifatini nojismoniy aspektlari borligini tan olishadi (elegant, o‘qishga oson va boshqalar). Ular sifatning nojismoniy aspektlarini rivojlantirishga qiziqqan odamlarni qo‘llashi va jamoaning hamma azosining o‘zini fropessional tutishiga chaqirishi kerak.

Sifatni rasmiy boshqarilishi ayniqsa bir necha yil mobaynida katta, uzoq muddat ishlaydigan tizimlatni yaratuvchi jamoalar uchun muhim. Sifat hujjati bu loyihaning har bir ost guruhi uchun yozilgan. Bu yozuvlar muhim vazifalar sedan chiqmaganligi va bitta guruh boshqa guruhlar tomonidan bajarilgan ishlar haqida noto‘g‘ri fikirga bormasligini tekshiradi. Sifat hujjatlari shuningdek tizimning hizmat ko‘rsatish muddati davomida muloqat vostasi bo‘ladi. Tizimni rivojlanishiga javobgar guruh yaratuvchi jamoasi tomonidan bajarilgan sinov va tekshiruvlarni kuzatishga imkon beradi.

Kichik tizimlar uchun sifatni boshqarish muhum bo‘lsa ham kam rasmiy bo‘lgan yondashuv qabul qilinishi mumkin. Ko‘p hujjat talab qilinmaydi chunki yaratuvchilarning katta bo‘lmagan jamoasi norasmiy muhitda muloqat qilishi mumkin. Kichik tizimlar yaratishda sifatning asosiy muammosi sifat madaniyatini yaratish va jamoaning hamma a‘zolari dasturiy ta‘minotning sifatiga bo‘lishli yondashuvda bo‘lishlarini ta‘minlashdir.

3.1. Dasturiy ta‘minot sifati

Sifat boshqaruvining asosiy tamoyillari ishlab chiqarilayotgan maxsulotlar sifatini yaxshilash uchun ishlab chiqarish saboati tomonidan o‘rnatilgan. Shu bilan birga ular “sifat” ta‘rifini rivojlantirishgan, u buyumning batafsil texnik harakteristikasiga (Crosby, 1979) va bardoshlik tushunchasiga asoslangan edi. Bunda asosiy taklif shunda ediki maxsulotlar to‘liq tasniflanib ishlab chiqilgan maxsulotni spetsifikatsiyasiga ko‘ra tekshirish tartiblarini o‘rnatish mumkin edi. Albatta maxsulot har doim ham spetsifikatsiyasiga to‘liq javob bermaydi, shuning uchun qabul qilna veradi. Agar maxsulot “deyarli to‘g‘ri” bo‘lsa u yaxshi deb olinadi.

Dasturiy ta‘minot sifati ishlab chiqarish bilan bevosita taqqaslash mumkin emas. Raqamli tizimlarga nisbatan tolerantlik g‘oyasini qo‘llab bo‘lmaydi va quyidagi sabablarga ko‘ra dasturiy taminot tizimi o‘z spetsifikatsiyasiga mos kelganligi haqida obyektiv xulosaga kelish mumkin emas:

1. Talablarni ishlab chiqish haqida 4 bobda gapirilgan edi, unda aytilganki dasturiy ta‘minotning to‘liq va bir ma‘noliy texnik talablarini yozish qiyin masala. Yaratuvchi va mijozlar dasturiy ta‘minotga qo‘yilgan talablarni har-xil tushunishlari munkin va dasturiy ta‘minot o‘z spetsifikatsiyasiga mos kelishi to‘g‘risida bitta to‘xtamga kelishi qiyin.

2. Texnik talablar odatda qiziqqan shaxslarning bir nechta sinfdan berilgan talablarni o‘z ichiga oladi. Bu talablar ilojsiz murosadir va qiziqqan shaxslarning hamma guruhini talablarini o‘z ichiga olmaydi. Tablari inobatga olinmagan shaxslar tizim kelishilgan talablarni amalga oshirsa ham sifatini past deb xisoblashadi.

3. Bazi sifat xususiyatlarini (masalan tuzatish mumkinligini) bevosita o‘lchash mumkin emas. Shunday qilib ular bir ma‘noli usulda aniqlanmaydi. O‘lchash muammolarini men 3.4 bo‘limda muhokama qilganman.

Shu muammolarni deb dasturiy ta‘minot sifatini baxolash subyektib jarayon, bunda sifat boshqaruv jamoasi kerakli sifat darajasiga erishilganligi haqida o‘z

fikrini bildiradi. Sifatni boshqarish jamoasi dasturiy ta‘minot belgilangan maqsadga mos kelishini ko‘rib chiqadi. bunda tizim xususiyatlari haqida savollarga javob berish kerak bo‘ladi. Masalan:

1. Yaratish jarayonida dasturlash va hujjatlar yuritilishi standartlar asosida bajarilganmi?

2. Dasturiy ta‘minot kwraklilik tarzda tekshirildimi?

3. Dasturiy ta‘minot ishlatilishga berilish uchun ishonchliligi yetarlimi?

4. Dasturiy ta‘minotning ishlashi yaxshimi?

5. Haqiqatan ham dasturiy ta‘minot foydalanishga tayyormi?

6. Dasturiy ta‘minotni tushunish va tuzilishi yaxshimi?

Saqlash	Tushunuvchanlik	Mobillik
Xavfsizlik	Tekshiruvchanlik	Ishlatishga qulayligi
Mustaxkamlik	Mosalshuvchanlik	Ko‘p marotaba ishlatish mumkinligi
Moslashuvchanlik	Modullik	Samaralilik
Chidamlilik	Murakkablik	O‘rganuvchanlik

3.2- rasm. Dasturiy ta‘minot sifatini atrebutlari

Dasturiy ta‘minot sifatini boshqaruvi tizim uning talablari bo‘yicha tekshirishni o‘z zimmasiga oladi. Bu sinovlar natijasiga ko‘ra talab etilgan fuksionallik bajarilishi haqida xulosa chiqariladi. Shuning uchun sifat kafolatlovchi jamoa ishlab chiqilgan testlarni ko‘rib chiqishi va testlar kerakli tarzda bajarilganligini tekshirish uchun test xisobotlarini o‘rganib chiqadi. bazi tashkilotlarda tizimni testdan o‘tkazishga sifat boshqaruvi javobgar lekin bazida bu ishni alohida tizimni testlash guruhi bajaradi.

Dasturiy ta‘minot tizimining subyektiv sifati ko‘p miqdorda uning funksional bo‘lmagan xususiyatlariga asoslanadi. Bu foydalanuvchi amaliy tajribasida aks ettiriladi – dastruriy ta‘minotning funksionalligi kutilgan darajada bo‘lmasa faydalanuvchilar o‘z ishlarini bajarish uchun boshqa yo‘llarni topadilar.

Lekin agar dasturiy ta‘minot ishonchsiz bo‘lsa yoki juda sekin ishlasa, ular o‘z maqsadlariga umuman yetisha olamaydi.

Shuning uchun dasturiy ta‘minot sifati faqat uning funksionallagi to‘g‘ri amalga oshirilganligi emas balki tizimning funksional bo‘lmagan xususiyatlariga ham bog‘liq. Boehm va boshqalar (1978) dasturiy ta‘minot sifatining 15 ta muhim belgisini taklif etti, ular 3.2- rasmda ko‘rsatib o‘tilgan. Bu belgilar dasturiy ta‘minotning ishonchliligi, qulayligi va ishlatish osonligi, samarasi va tuzatish mumkinligiga oiddir. Yuqorida aytganidek ishonchlilik belgilari odatda tizim sifatining eng muhum ko‘rsatkichlaridir. Lekin dasturiy ta‘minotning ishlashi ham juda muhim. Foydalanuvchilar juda sekin ishlaydigan dasturiy ta‘minotni rad etadilar.

Har qanday tizim uchun bu hamma belgilarini aptimallashtirishning ilojisi yo‘q-masalan ishonchlilikni oshirish natijasida ishchanlikni pasaytirish mumkin. Shuning uchun sifatni rejalashtirishda yaratilayotgan dasturiy ta‘minot uchun eng muhim sufat xususiyatlarini belgilash kerak. Samaradorlik muhim bo‘lganda bunga erishish uchun bishqa omillardan vos kechish kerak bo‘ladi. Siz bu haqda sifat rejasida aytib o‘tsangiz muhandislar bunga erishish uchun hamkorli qilishlari kerak. Reajada shuningdek sifatni baxolash jarayoni belgilanishi kerak. Maxsulotda tuzatish mumkinligi yiko ishonchlilik kabi sifat borligini tekshirish bo‘yicha usul kelishuv asosida ishlab chiqilgan bo‘lishi kerak.

Dasturit ta‘minot sifatini boshqarish asosida dasturiy ta‘minot sifati bevosita dasturiy ta‘minotni ishlab chiqarish jarayonining sifati bilan bog‘liq ekanligi haqidagi g‘oya yotadi. Bu yana sanoat tizimlarida kelib chiqadi, ularda maxsulot sifati ishlab chiqarish jarayoni bilan chambar-chas bog‘liq.

Ishlab chiqarish jarayoni ichiga jarayonda qatnashadigan mashinalarni shakillantirish, o‘rnatish va ishga tushirish kiradi. Mashinalar to‘g‘ri ishlasa maxsulot sifati ham yaxshi bo‘ladi. Siz maxsulot sifatini tekshirasiz va sizga kerak bo‘lgan sifat darajasiga yetmaguncha jarayonga o‘zgartirish kiritaverasiz. 24.3-rasmda maxsulot sifatiga yetishishda jarayonga asoslangan yondashuv ko‘rsatilgan.



3.3- rasm. Jarayon bajarilishiga bog‘liq bo‘lgan sifat

Ishlab chiqarishda jarayon va maxsulot sifati o‘rtasida aniq bog‘liqlik bor chunki jarayonni standartlashtirish va nazorat qilish nisbatan oson bo‘ladi. Ishlab chiqarish tizimlari kalibrovka qilingandan keyin yuqori sifatli maxsulotni chiqarish uchun ularni boshqarish mumkin. Lekin dasturiy ta‘minot ishlab chiqilmaydi u yaratiladi. Shuning uchun dasturiy ta‘minot yaratishda jarayon sifati va maxsulot sifati o‘rtasidagi munosabatlar murakkobroqdur. Dasturiy ta‘minotni yaratis-mexanik emas balki ijodiy jarayondir va unda alohida ko‘nikma va tajtibaning ta‘siri muhimdir. Ilovaning yangiligi yoki maxsulotni ertaroq chiqarish niyatida tijorat bosimi kabi tashqi omillar ham ishlatilayotgan jarayonga bog‘liq bo‘lmagan holda maxsulot sifatiga ta‘sir etadi.

Shubxasiz yaratishda foyadalanilgan jarayonlar dastiruy ta‘minot sifatiga katta ta‘sir o‘tkazadi va yaxshi jarayonlar gumonsiz dasturiy ta‘minotning yaxshi sifatini ta‘minlaydi. Jarayonni sifatini boshqarish va mukammallashtirish natijasida yaratulayotgan dasturiy ta‘minotning defektlarini kamaytirishi mumkin. Lekin dasturiy ta‘minotning uzoq vaqt mobaynida foydalanmasdan turib uning tuzatish mumkinligi kabi sifat ko‘rsatkichlarini baxolash qiyin. Bundan kelib chiqadiki jarayon xususiyatlari sifat belgilariga qanday ta‘sir etishini aytish qiyin. Undan tashqari jarayonni standartlashtirish ijodiy patensialga to‘sqinlik qilishi mumkin va natijada dasturiy ta‘minot sifatiga zarar yetishi mumkin.

3.2. Dasturiy ta‘minot standartlari

Dasturiy ta‘minot standartlari dasturiy ta‘minot sifatini boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Oldin aytganimdek sifatni kafolatlashning asosiy qismi – dasturiy ta‘,minot yoki dasturiy maxsulotni yaratish jarayoniga oid standartlarni aniqlash yoki tanlashdir. Bunday sifatni kafolatlovchi jarayon qismi sifatida shiningdek bu standartlarini qo‘llab quvvatlovchi vosita va usullar tanlanishu mumkin. Standartlar tanlangandan keyin standartlardan foydalanish va ularni kuzatilishini nazorat qiluvchi jarayonlar belgilanishi kerak.

Dasturiy ta‘minot standartlari 3 sabaga ko‘ra muhimdir:

1. Standartlar tashkilot uchun muhum bo‘lgan bilimdonlikni aks ettiradi. Ular tashkilot uchun eng yaxshi yoki eng mos keluvchi amalyot haqidagi bilimga asoslangan. Bu bilim katta miqdordagi urinish va hatoliklar natijasida paydo bo‘ladi. Standartni yaratilishi tashkilotga bu tajribadan foydalanishni va avvalgi hatoliklarni qaytarmaslikka yordam beradi.

2. Satndartlar “sifat” qismlarni boshqarishda ma‘nosini belgilashga asos bo‘ladi. Oldin aytganimdek dasturiy ta‘minot sifati subyektiv bo‘ladi va standartlardan foydalanib siz sifatning kerak darajasiga erishilganligini asoslab berasiz. Labatta bunda dasturiy ta‘minotning ishonchliligi, ishchanligi faydalanish qulaylugi va soddaligi bo‘yicha foydalanuvchilar talablarni aks ettiruvchi normalarni belgilashga bo‘g‘liq.

3. Bitta odam boshlagan ishni boshqalar uzluksiz davom ettirishida standartlar yordam beradi. Bitta tashkilot doirasidagi hamma muhandislar bir xil usuldan foydalanishini stanadartlar kafolatlaydi. Demak yangi ishni boshlashda o‘qitishga ketadigan harajatlar kamayadi.

Dasturiy ta‘minot sifatini boshqarishda belgilanishi va ishlatilishi mumkin bo‘lgan dasturlashning ikkita bog‘langan:

*1. Maxsulot standartlari.*ular yaratilayotgan dasturiy maxsulotga oiddir. Ular ichiga talablar hujjarlarining tuzulmasi kabi hujjatlar standartlari, obyektlar

sinfining belgilovchi izoxining standart sarlovhasi kabi hujjatlashtirish standartlari va dasturlash tili qanday ishlatilishini belgilovcha kod standartlari kiradi.

2. Jarayon standartlari. Ular dasturiy ta‘minot yaratishda qanday jarayonlar bo‘lishini belgilaydi. Ula o‘z ichiga yaratishning eng yaxshi amalyotini olishi kerak. Jarayon standartlari ichiga spetsifikatsiya, dizayn va ratifikatsiya jarayonlarini,jarayonlarni qo‘llab quvvatlab truvchi vositalarni tasniflari va bu jarayonlar vaqtida yozilishi shart bo‘lgan hujjatlar ta‘sniflari kirishi mumkin.

Maxsulot standartlari	Jarayon standartlari
Loyihani taxlil qilish shakli	Loyiha taxlilini boshqarish
Talablar hujjatining tuzilmasi	Tizimni qurish uchun yangi kodni kiritish
Usul sarlavhasi formati	Varyantlarni chiqarish jarayoni
Java dasturlash uslubi	Loyiha rejasini maqulllash jarayoni
Loyiha rejasining formati	O‘zgartirishni nazorat qilish jarayoni
Maxsulotni o‘zgartirishga so‘ro‘vning shakli	Sinovdan o‘tkazish jarayoni

3.4- rasm. Maxsulot va jarayon standartlari

Standartlar maxsulot sifatini muhimligini shakillantirishi kerak. Vaqt va ketadigan kuch nuqtai nazaridan qimmat bo‘lgan standartlarni aniqlashda ma‘no yo‘q. maxsulot shunday ishlab chiqilishi kerakki, ularni ro‘yhatga olish va ishlatish foyda keltirishi kerak hamda standart jarayonlariga maxsulot yaratishda standartlar qo‘llanishini aniqlovchi jarayonlar bpo‘lishi kerak.

Dasturlashning haqaro standartlarini yaratish uzoq muddatli jarayondur, bunda standartga qiziqqanlar uchrashadilar, izoxlash uchun eskiz tayyorlaydilar va nihoyat standart haqida bir to‘xtamga kelishadi. U.S, DoD, ANSI, BSI, NATO va IEEE kabi milliy va halqaro tashkilotlar standartlarni ishlab chiqish bilan shug‘ullanadilar. Turli loyihalarda foydalanish mumkin bo‘lgan umumiy standartlar. NATO va boshqa himoya tashkilotlari kabi o‘byektlar dasturiy

ta‘minot tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalarda o‘zlarini standartlaridan foydalanishni talab qilishlari mumkin.

Milliy va halqaro standartlar ishlab chiqishida belgilar chizilishi, dasturiy ta‘minot talablarini olish va yozish protseduralari, sifatni kafolatlash protseduralari, dasturiy ta‘minotni tekshirish va jarayonlarni klassifikatsiyalash Java va C++ kabi dasturlash tillari, texnik atamalari, izoxlar ko‘zda tutilgan (IEEE, 2003). IEC 61508 (IEC, 1998) kabi maxsus standartlar himoyasi va havfsizligi muhim bo‘lgan tizimlar uchun yaratilgan.

Tashlikot uchun standartlarni yaratuvchi sifatni boshqaruvi tashkilotning bu standartlarini milliy va halqaro standartlariga asoslash kerak. Xalqaro standartlarni boshlash nuqtasi sifatida ishlatib sifatni kafolatlovchi jamoa standatrlar bo‘yicha yo‘riqnomani tuzish kerak. Unda tashkilotga ketak bo‘lgan standartlar berish kerak. Bunday yo‘riqnomaga kiritilishi mumkin bo‘lgan standartlat misollari 3.4 rasmda berilgan.

Dasturiy ta‘minot yaratuvchilari bazida standartlar da ortiqcha ko‘p ko‘rsatma berilgan deb xisoblaydi va dasturiy ta‘minotning texnik faoliyati uchun ahamyatsiz deb hisoblaydilar. Loyiha standartlari ko‘p hujjat va ish borishini talab etganda shunday bo‘ladi. Odatda muhandislar standartlar ummumiy holda kerakligini tan olishsada ular ko‘pincha loyihaning ularga tegishli qishmida standartlar unchalik kerak bo‘lmaganligiga jiddiy asoslar topib berishadi.

Me’yorlarni o‘rnatuvchi sifat boshqaruvchilari qarshilikni ozaytirish uchun va standartlarga munosabatlarni o‘zgartirish uchun quyidagilarni bajarishlari kerak:

1. *Maxsulot standartlarini tanlashga dasturiy ta‘minot yaratuvchilarini chorlang.* Yaratuvchilar standartlar nimaga tanlanganini tushunsa, shu standartlarga rioya qilishi extimoliko‘payadi. Eng yaxshi varyanti standartlar hujjatida nafaqat standart bayon etiladi balki nega standartlashning bu turi tanlanganligi tushuntirilishi kerak.

2. *Standartlarni har doim ko‘rib chiqish va o‘zgaruvchan texnologiyalarga mos xolda o‘zgartirish kerak.* Standartlar yaratish jarayonida muhim o‘zinga ega va ular odatda tashkilotning standartlar yo‘riqnomasida saqlanadi. Ketadigan sarf

va muhokama qilish kerakligi uchun ularni o‘zgartirishga ko‘pincha hohish bo‘lmaydi. Standartlar yo‘riqnomasi muhim lekin o‘zgarayotgan sharoit va texnologiyalarni aks ettirish uchun ularni o‘zgartirish kerak.

3. *Satandartlari qo‘llovchi dasturiy vositalarini ta‘minlang.* Yaratuvchilar standartklarda nazarda tutilgan zerikarli qo‘l ishini dasturiy vosita yordamida bajarish yo‘llarini topadilar. Vositadan foydalanish mumkin bo‘lsa dasturiy ta‘minot standartni bajarish uchun kam harakat ketadi. Masalan hujjatli standartlari matn protsessori stillari yordamida bajarishi mumkin.

Dasturiy ta‘minotning har-xil turlari yaratishning har-xil jarayonini talab qiladi, shuning uchun standartlar moslashishi kerak bo‘ladi. Ishlash usuli, loyiha yoki loyiha guruhiga mos kelmasa uni tanlashdan fiyda yo‘q. Har bir loyiha boshqaruvchisi jarayon standartlarini o‘zing sharoitiga hos xolda o‘zgartirishga vakolatiga ega bo‘lishi kerak. Lekin bu o‘zgartirishlar maxsulot sifatini pasayishiga olib kelmasligi kerak. Chunki bu tashkilotning mujozlari bilan munosabatiga ta‘sir etishui va loyiha sarflari ko‘payishiga olib kelishi mumkin.

Loyiha boshqaruvchisi va sifat boshqaruvchisi loyihani boshidan sifatni etibor bilan rejalashtirish evaziga mos kelmaydigan standartlar moammosini oldini olishlari mumkin. Ular tashkiliy standartlarni qaysinisi o‘zgartirishsiz ishlatilishi, qaysilari o‘zgartilishi va qaysilari ishlatilmasligi haqida qaror qabul qilishlari kerak. Yangi standartlar mijoz hohishiga yoki loyiha talablariga mos tarzda yaratilishi kerak. Masalan oldingi loyihalarda ishlatilmagan formal talablari uchun standartlar yaratilishi mukin.

3.2.1. ISO 9001 standartlar tuzilishi

Barcha sohalarda boshqaruv tizimlarining sifatini rivojlantirishda foydalanish mumkin bo‘lgan xalqaro standartlar majmui bor bo‘lib,ular ISO9000 deb nomlanadi.ISO9000 ishlab chiqarish tashkilotlaridan tortib xizmat tarmoqlarida bir qator yo‘nalishlarda qo‘llaniladi. ISO 9001,ushbu majmualar ichida umumiysi bo‘lib,dizayn,ishlab chiqarish,mahsulotni saqlash,shuningdek

dasturiy ta‘minotni o‘z ichiga olgan tashkilotlar uchun amal qiladi.ISO9001 dastlab 1987 tilda ishlab chiqilgan ,so‘nggi ko‘rinishi esa 2008 yilda yaratilgan.

ISO 9001 o‘zi dasturiy ta‘minot ishlab chiqish uchun standart emas, lekin dasturiy ta'minot standartlarni ishlab chiqish uchun asos. Bu esa uning umumiy tamoyillarini belgilaydi. Umumiy sifat jarayonlarini tasvirlaydi hamda jarayonlar va standartlar belgilangan bo‘lishi kerak. Bu sifatli hujjatlashtirilishi lozim.



3.5- rasm. ISO 9001 standartining yadro jarayonlari

Agar tashkiliy tuzilish ISO9001 bilan bog‘liq bo‘lsa, uning asosiyhujjat jarayoniga bog‘liq bo‘lishi kerak. Bu shuningdek namoyish etilgan hujjatlarni aniqlashi va saqlab qolishi kerak. Kompaniya sifatli qo‘llanmasi tegishli jarayonlar va mavjud jarayonlarda to‘plangan va muhofaza qilingan ma‘lumotlarni tasvirlashi kerak. ISO9001 kompaniyada ishlatilishi kerak bo‘lgan maxsus jarayonlarni aniqlamaydi. Sifatli standart dasturlar dasturiy ta‘minot uchun mos deb belgilangan.

Qog‘ozbozligi bo‘lmagan kichik kompaniya ISO9001 mos bo‘lishi mumkun. Ba‘zi kompaniyalari batafsil qattiq sifat jarayonlariga ega. boshqalar esa minimal qo‘shimcha hujjatlar bilan , juda kam rasmiy bo‘lishi mumkin. ISO 9001, tashkiliy sifatli qo‘llanmalar va shaxs o‘rtasidagi munosabatlar loyiha sifat rejalari

3.6 shaklda ko‘rsatilgan.Ushbu diagramma Inca tomonidan olingan modelda asosiy sifatli dasturiy ta‘minotda foydalanisih mumkunligi tushuntiriladi.Dielbler va Bamford keyinchalik ISO9001,2000 dasturiy ta‘minot kompaniyalarida qo‘llanilishini tushuntiradi.(3.6 rasm)

Ba‘zi mijozlar ISO9001 sertifikatlangan bo‘lishini talab qilishadi.shundan so‘ng mijozlar dasturiy ta‘minot sifatli boshqaruvga ega ekanligiga amin bo‘lishadi.Ba‘zilar sertifikatlangan ISO 9001 dasturiy ta‘minoti sertifikatlanmaganidan yaxshiroq bo‘ladi deb o‘ylashadi.Bu juda muhum emas.ISO9001 standarti kompaniyada sifat jarayoni boshqaruvi borligiga va uni doimiy boshqarib turishga mo‘ljallangan.ISO9001 kompaniyasi eng yaxshi dasturiy ta‘minot ishlatishiga yoki ularning jarayonlari yuqori sifatli dasturiy ta‘minot boshqarishiga kafolat yo‘q.Misol uchun,kompaniya test standartlarini barcha usullar ni kamida bir martada aniqlab oladi.Afsuski,bu standart sinovi chala dasturiy ta‘minotlarida ko‘rilishi mumkun.



3.6- rasm. ISO 9001 va sifat boshqaruvi

Dasturiy ta‘minotning bazi mijozlari ta‘minotchilar standartlashtirish halqaro tashkiloti ISO 9001 tomonidan tasdiqlangan bo‘lishini talab qilishadi. Mijozlar bunda dasturiy ta‘minot yaratuvchi kompaniyaning sifatni boshqarish tizimi maqullanganligiga ishonch hosil qiladi. Mustaqil akriditatsiya tashkilotlarisifatni boshqarish jarayonlari va rasmiylashtirish jarayonlarini

tekshiradilar va bu jarayonlar ISO 9001 da belgilangan hamma sohalarni qamraganligi haqidaqaror qabul qiladilar. Agar shunday bo‘lsa ular kompanayaning sifat jarayonlari ISO 9001 tomonidan o‘rnatilgan standartga mos kelishini tasdiqlaydilar.

Bazi odamlar o‘ylaydiki ISO 9001 sertifikati berilgan tashkilotlarning dasturiy ta‘minotining sifati bunday sertifikatini olmagan tashkilotlardan yuqori bo‘lishini kaflatlaydi. Bu har doim ham to‘g‘ri emas ISO 9001 standarti tashkilotda sifatni boshqarish protseduralab borligini va u ularga rioya etishini kafolatlaydi holos. ISO 9001 kompaniya dasturiy ta‘minotning yaratishni eng zo‘r usullaridan foydalanishini va ularning jarayonlari yuori sifatli dasturiy ta‘minotga olib kelishini kafolatlamaydi.

Masalan kompaniya hamma usullarni obyekti qabrab oluvchi tekshirish standartini xech bo‘lmasa bir marta e’lon qilishi kerak. Afsuski bu standart usulning har-xil parametrini inobatga olamagan testlovchi dasturga uchrashi mumkin. Tekshiruv protseduralari kuzatilib bajarilgan test natijalari saqlanganda kompaniya ISO 9001 tomonidan sertifikatlangan bo‘lishi mukin. ISO 9001 sifat standartga to‘g‘ri kelishini aniqlaydi va dasturiy ta‘minot sifati foydalanuvchi tomonidan qanday sinalganiga etibor bermaydi.

Rasmiylashtirishga etibor berilmagan va asosiy etibor yaratilayotgan kodga qaratilgan tezkor usullar ISO 9001 dagi rasmiy sifat jarayonlari bilan kam bog‘langan. Bu yondashuvlarni moslashtirish bo‘yicha bir qatir ishlar bajarilgan (Stalhane va Hanssen, 2008) lekin tezkor rivojlantirish tarafdorlari standartga to‘g‘ri kelishlarini tepadagi byukrakratlar tomonidan o‘rganilishiga qarshi edilar. Shuning uchun tezkor usullardan foydalanuvchi tashkilotlar ISO 9001 sertifikatini olishga oshiqmaydilar.

3.3. Sharx va tekshiruvlar

Sharx va tekshiruvlar loyiha sifatini tekshiruvchi SK amallaridur. Bunda dasturiy ta‘minot jarayonlarining rasmiylashtirilishi va xisobotlari hato va

kamchiliklarini aniqlash uchun tekshiriladi va sifat standartlariga rioya qilingani ko‘riladi. 8 va 15 bobda aytilgandek sharx va tekshiruvlar dasturiy ta‘minot tekshirish va ratifikatsiyalash umumiy jarayonining yaqinidagi tekshirish dasturi sifatida ishlatiladi.

Sharx vaqtida bir guruh odam dasturiy ta‘minot va u bilan bog‘liq hujjatlarni tekshirib muammo va standartga tushmagan joylarni topadi. Sharx jamoasi tizim yoki loyiha sifati darajasi haqida axborot tayyorlaydi. Loyiha boshqaruvchilari bu baxolardan rejalashtirish qarorlarini qabul qilishda foydalanishi mumkin va jarayonni rivojlantirish uchun manba ajratishi mumkin.

Sifatrni sharxlash dasturiy ta‘minot yaratish vaqtida taqdim etilgan hujjatlarga asoslanadi. Shuningdek dasturiy ta‘minotga qo‘yilgan texnik talablar loyiha dizayni yoki kodi jarayon modellari, sinov rejalari, konfiguratsiyani boshqarish protseduralar, jarayon standartlari va foydalanuvchi yo‘riqnomasi ko‘rilishi mumkin. Sharx hujjatlar yoki kodningketma-ketligini va tugaganligini tekshirishi va sifat standartlariga rioya qilinganligiga amin bo‘lishi kerak.

Lekin sharxlar nafaqat standartga to‘g‘ri kelishini tekshiradilar ular shuningdek dasturiy ta‘minot yoki loyiha hujjatlaridagi mummo va kamchiliklarni aniqlash uchun yordam beradi. Sharx xulosalari sifatni boshqarish jarayonini qismi sifatida rasmiylashtirilishi shart. Ammolar aniqlangan bo‘lsa tekshiruvchilar izoxlarini dasturiy ta‘minot muallifi yoki hatolarni bartaraf etuvchilarga berish kerak.

Sharx va tekshiruvlarrning maqsadi jamoa a‘zolarini baxolash uchun emas balki dasturiy ta‘minot sifatini yaxshilashdur. Komponentlarni sinovdan o‘tkazishga nisbatan sharxlash hatolikni aniqlashni umumiyroq jarayonidur. Odamlar tomonidan qilingan hatolar ilojsiz butun dasturlash jamoasiga ko‘rsatiladi. Loyihani boshqaruvchilari jamoa a‘zolarini ko‘rib chiqishda alohida muammolarga etiborli bo‘lishlari kerak. Ular ish madaniyatini shunday rivojlantirishi kerakki hatolar topilganda aybini yuklamasdan uni bartaraf etishga yordam berish afzalroq hisoblanish kerak.

Sifat sharxi raxbaryatga dasturiy ta‘minot rivojlanishi haqida axborot bersa ham, sifat sharxlari rivojlantirishni boshqarish sharxi degani emas. 23 bobda aytganimdek rivojlanish sharxlari dasturiy ta‘minotning rejalashtirilgan jadval bo‘yicha ketishini taqqoslaydi. Ularning asosiy havotiri dasturiy ta‘minot vaqtida va byudjetdan chiqmagan holda yetkazilishidur. Rivojlantirish sharxlari tashqi omillarni inobatga oladi va bunda o‘zgargan sharoitlar yaratilayotgan dasturiy ta‘minot kerak emasligini yoki keskin o‘zgartirilishini bildiradi.



3.7- rasm. Dasturiy ta‘minotni qayta ko‘rish jarayoni

Yuqori sifatli dasturiy ta‘minot yaratilgan loyihalar biznesdagi o‘zgarishlar yoki operatsion muhitni deb bekor qilinishi mumkin.

3.3.1. Qayta ko‘rish jarayoni

Sharxlar detallarida ko‘p o‘zgarishlar bo‘lsa ham, qayta ko‘rish jarayoni (3.7 rasm) odatda 3 fazadan iborat:

1. *Sharxdan oldingi amallar.* Bu sharx samarali bo‘lishi uchun muhim bo‘lgan avvalgi ammalar odatda sharxdan oldingi ammallar rejalashtirishni sharxlash va sharxlashga tayyorgarlikdan iboratdur. Sharxni rejalashtirishga sharxlovchi jamoani, sharx vaqti va joyini belgilash va ko‘riladigan hujjatlarni tarqatilishi kiradi. Sharxga tayyorlanish vaqtida jamoa ko‘riladigan dasturiy ta‘minotni qisqacha sharxni bajarish uchun uchrashish mumkin. Jamoaning alohida

a‘zolari dasturiy ta‘minot yoki hujjatlar va tegishli standartlarni o‘qishadi va tushunishga harakat ilishadi. Ular hat, kanchilik va standartga mos kelmagan joylarni mustaqil tarzda topishadi. Taqrizchilar sharxda qatnasha olmasa dasturi ta‘minotga yozma izohlar qoldirishi mumkin.

2. *Sharxlovchilar uchrashuvi.* Hujjat yoki dastur muallifi hujjtani sharxlavchi jamoa bilan kezib chiqishi kerak. Sharxlovning o‘zi nisbatan qisqa bo‘lishi kerak-keng ko‘p 2 soat. Jamoaning bir a‘zosi sharxlashni boshqazrish kerak, ikkinchisi sharxlovning hamma qarorlari va amallarini rasmiylashtirishi kerak. Sharxlov raisi hamma yozma izoxlar ko‘rib chiqilishi kerak. Sharxlov vaqtida kelishilgan izox va amllar hisobotini sharxlov raisi imzolashi kerak.

3. *Sharxlovdan keyingi amallar.* Sharxlov uchrashuvi tugagandan keyin unda aniqlangan muammolar bartaraf etilishi kerak. Bunda sifat standartlariga mos kelishi uchun dasturiy ta‘minot hatolari tog‘irlanadi yoki hujjatlar qayta yozialadi. Bazi paytlarda sifat sharxida aniqlangan muammolarni yechish uchun manbalarni ko‘paytirish maqsadida boshqaruv sharxini ham o‘tkazish talab qilinadi. O‘zgartirishlar kiritilgandan keyin sharxlov raisi sharxdagi hamma izoxlar hisobga olinganligini tekshirishi mumkin. Bazida keyingi sharxda oldingi sharxning hamma izohlari bo‘yicha o‘zgartirishlar kiritilganligini tekshiriladi.

Sharxlash jamoasida odatda asosiy taqrizchi deb tanlangan 3 yoki 4 odam bo‘ladi. Bitta qatnashchi muhin texnik qarorlarni qabul qilishga javobgarligini o‘ziga oluvchi katta loyihalovchi bo‘lishi kerak. Boz taqrizchi bog‘langan ost tizimlarning loyihalashtiruvchilarini sharxni yaxshilash maqsadida taklif etishi mumkin. Ular butun hujjatni tekshirishga qatnasha olmaydi lekin o‘zlarini ishi bilan bog‘liq joylarni etiborga olishadi. Alternativ sifatida sharxlov jamoasi hujjtani tarqatishi va loyiha qatnashchilarining keng spektridan yozma izox berishlarini so‘rashi mumkin. Loyihani rejasida o‘zgartirish kiritishni talab qiluvchu muammolar kutilmasa sharxlovga loyiha boshqaruvchisi taklif etilmaydi.

Yuqorida ko‘rilgan sharxlov jarayoni jamoa a‘zolari yig‘ilishi oson bo‘lgan holatlarga mo‘ljallangan. Lekin hozir loyiha guruhlari har-xil mamlakat va kontsenetlatga tarqalgan bo‘ladi va ularni bitta joyda to‘planishi amri mahol..

bunday hollarda sharxlov jarayonini bajarish uchun hujjatni muharrirlash vositasidan foydalanish mumkin. Ularning yordamida jamoa a‘zolari dasturiy ta‘minotning hujjat yoki dastlabki kodini izox bilan to‘ldirishlari mumkin. Bu izoxlar jamoaning boshqa a‘zolariga ko‘rinadi va ular bu izoxlarni maullashi yoki rad etishi mumkin. Taqrizchilar orasidafi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishalri uchun telefon orqali muloqatlar o‘tkazilishi mumkin.

Dasturiy ta‘minotni tezkor yaratishda sharxlash jarayoni odatda rasmilashtirilmaydi. Masalan dasturiy ta‘minotning har bir iteratsiyasidan keyin sifat moammolari muhokama qilinishi mumkin bo‘lgan sharxlov bor (pring sharxlov). Keyingi bo‘limda muhokama qilganimdek favqulotda dasturlashda dasturlovchi muftlikda kod har-doim jamoaning boshqa a‘zosi tomonidan o‘rganilishi va tekshirilishi kafolatlanadi. Sifatning umumiy muammolari jamoaning har kungi uchrashuvlarida muhokamaqilinadi, lekin FD da odamlar kodni yaxshilash va o‘zgatirishni o‘z zimmasiga oladi. Tezkor yondashuv standartlar bilan boshqarilmaydi shuning uchun standartlarga mos keltirish muammosi tug‘ulmaydi.

Tezkor usullardagi sifatga oid rasmiy protseduralar yetishmovchiligi sifatni boshqarish bunday protseduradagi rivojlantirgan tashkilotlarda tezkor yondashuvlardan faydalanishlarda muammo paydo bo‘lishi mumkin. Sifatni sharxlash dastruriy ta‘minot rivojlanish tempini pasaytirishi mumkin va ular jarayon rivojlanishi boshqarish rejasi doirasida ishlatilishi maqsadga loyiqdur. Reja bo‘yicha boshqaruvchi jarayonda sharxlar rejalashtiriladi va ular bilan bir vaqtda boshqa ish bajarilishi mumkin. Tezkor yondashuvda etibor kodni rivojlantirishga qaratilgani uchun bu foyda keltirmaydi.

3.3.2. Dasturni tekshirish

Dasturni tekshirish-“expert baxolash”, bunda jamoa a‘zolari hamkorlikda yaratilayotgan dasturda hatoliklarni topihadi. 8 bobda aytganimdek tekshiruv dasturiy ta‘minotning tekshiruv va ratifikatsiya qismi bo‘lishi mumkin. Ular dastur

bajarilishini talab qilmagani uchun sinovdan o‘tkazishga qo‘shimcha bo‘lishi mumkin. Budegani tizimning to‘liq bo‘lmagan versiyalari hamda UML modellari kabi taqdimotlari tekshirilishi mumkin. Gilb va Graham (1993) tekshuruvlarning samarali foydalanish usullari sifatida tizim buzilishlarini ko‘rishni taklif etishgan. Tekshiruvlar testlardagi muammolarni aniqlashga va dasturni hatolarini samarasini yaxshilashga yordam beradi.

Dasturlarni tekshirishga jamoaning har-xil a‘zolari taklif etiladi va ular ehtiyotkorlik bilan dasturning dastlabki kodini tekshirib chiqishadi. Ular hato va muammolarni topishadi va tekshiruvchilar uchrashuvida tasniflab beradi. Bu hatolar mantiqiy hato noto‘g‘ri shartni ko‘rsatuvchi anomaliya, kodda qolib ketgan joylar bo‘lishi mumkin. Tekshiruv jamoasi model dizayni yoki dastur kodini tuzatilishi kerak bo‘lgan detal va asosiy anomaliya borligiga tekshiradi.

Tekshiruv paytida hatoliklarni topishni yengillashtirishni topish uchun umumiy dasturiy hatoliklarning nazorat ro‘yhati ishlatiladi. Bu nazorat ro‘yhati kotiblardagi misollarga yoki alohida amaliy sohada keng tarqalgan defektlarhaqidagi bilimlarga soslanishi mumkin. Dasturlashning har-xil tillari uchun siz alohida nazorat ro‘yhatini ishlatasiz, chunki har bir tilda o‘ziga hos hatoliklar bo‘ladi. Xamfri(1989) tekshiruvlarni har tomonlama muhokamasida tekshirishning nazorat ro‘yhatlarining ko‘p misolini keltirgan.

Tekshiruv jarayonida bajarilishi mumkin bo‘lgan tekshirishlar 3.8 rasmda ko‘rsatilgan. Gilb va Graham (1993) har-bir tashkilot o‘zining standart va usullariga asoslanga tekshiruvning nazorat ro‘yhatini ishlab chiqishni aytishgan. Bu nazorat ro‘yhatlari doim yangilanib turishi kerak chunki hatoliklarning yangi turlari paydo bo‘ladi. Nazoarat ro‘yhatidagi punkitlar komplatsiya vaqtida mumkin bo‘lga tekshiruvning har-xil darachasi borligi uchun dasturlash tiliga ko‘ra o‘zgaradi. Masalan Java kompilyatori funksiyalarda parametrlash soni to‘g‘riligini tekshiradi. C kompilyatori bu ishni bajarmaydi.

Tekshiruvlarni amalga oshirgan ko‘plab tashkilotlar ular hatolarni topishda samarali ekanligini bilishdi. Fagan(1986) habar qilishicha dasturdagi 60 % dan ko‘p hatoliklar norasmiy tekshiruvlarda aniqlanishi mumkin. Mills va boshqalar

(1987) to‘g‘rilik argumentlariga asoslangan tekshiruvga rasmiy yondashuv orqali dasturdagi 90% dan ko‘proq hatoliklar topilishi mumkin deb taxmin qilishdi. MCConnell (2004) taqqoslaganda testlashda 25 % hatoliklar topilgan tekshiruvda esa 60%. U shuningdek ko‘p misollar keltirgan bitta misolida expert baxolash kiritilganda unumdorlik 14% oshgan va dasturdagi hatoliklar 90% kamygan.

Tekshiruv yoki expert baxolashlarni samaradorligi haqida ko‘p ijodiy fikirlar bildirilganiga qaramay dasturiy ta‘minot yaratuvchilarining ko‘pi ulardan foydalanishni hohlamaydi. Dasturlashni sinovdat o‘tkazish tajribasiga ega dasturiy ta‘minot yaratuvchilari tekshiruvlar hatoni testlardan ko‘ra yaxshiroq topishini tan olgilari kelmaydi.

Boshqaruvchilar bunga shubha bilan qaraydilar chunki tekshiruvlar loyihalash va yaratishy vaqtida qo‘shimcha sarf harajatni talab qiladi. Ular dasturni sinovda o‘tkazishni ketadigan sarfdan ko‘payib ketishi mumkin deb qo‘rqishadi.

Kamchilik sinfi	Nazorat ro‘yahti
Vaqt kamchiliklari	Ularning qiymatlari barcha dastur o‘zgaruvchilarining boshlang‘ich holdan keyin ishlatiladimi? Barcha constantalar nomidan bachariladimi? O‘lchami massiv yoki o‘lcham-1 bo‘lgan massivlarga teng bo‘lishi kerakmi? Agar belgilar sart ko‘rinishida bo‘lsa, chegara ochiq ko‘rsatiladimi?
Nazorat kamchiliklari	Har bir shartli bayonotida uchun, holati to‘g'ri bo‘ladimi? Har bir halqa bekor qilinishi ma‘lummi? Murakkab bayonotlar to‘g‘ri bo‘la oladimi? Tashkiliy ish jadvalida barcha mumkin bo‘lgan holatlar bormi? Agar holat bayonotlarida keltirilgan har bir holatdan

	keyin, to‘htalish zarur bolsa bu xisobga olinganmidi?
Kiritish/chiqarish kamchiliklari	Barcha kirituvchi o‘zgaruvchilar ishlatilgan bo‘ladimi? Barcha chiquvchi o‘zgaruvchilar chiqishdan oldin qiymatga ega bo‘ladilarmi? Kutilmagan kiritishlar korrupsiyaga olib kelishi mumkinmi?
O‘zaro bog‘lanish kamchiliklari	Barcha funksiya va usullar parametrlarning to‘g‘ri sonini chaqira oladimi? Rasmiy va haqiqiy parametrlar mos turlardami? Parametrlar to‘g‘ri tartibdami? Agar qism hotirasi bo‘lajlarga kirolsa, ular shu xotira model tuzilishida bormi?
Boshqaruv saqlash kamchiliklari	Agar aloqa tuzilishida o‘zgarishlar bo‘lsa, barcha aloqalar to‘g‘ri tayinlanganmi? Agar dinamik hotiradan foydalangan bo‘lsa, hotira to‘g‘ri ajratilganmi? Kerak bo‘lmay qolgan joy bo‘shatiladimi?
Istesno boshqaruv kamchiliklari	Barcha kutilgan hatoliklar xisobga olinganmi?

3.8- rasm. Nazorat ro‘yhati

Tezkor jarayonlar tekshiruv yoki expert baxolashning resmiy jarayonlaridan kam foydalanishadi. Ular ko‘proq bir-birini kodini tekshiga ishonib qolishadi va har bir dasturchi o‘zini kodini tekshirishga ishonadilar. Favqulotda dasturlash amalyotchilari bunday dasturlashni tekshiruvni samarali o‘rnbosari deb bilishadi chunki haqiqatdan ham bunday tekshiruv jarayoni uzluksiz bajariladi. Iikita odam kodning har bir satrini ko‘rib chiqadi va qabul qilishdan oldin tekshiradi.

Juftlikda dasturlashda dastur haqida chuqur bilimga ega bo‘ladi shunki ikkila dasturchi yaratishni davom ettirish uchun bir-birini ishini tushunishi kerak. Boshqa

tekshiruv jarayonlarida bunday bilimga erishish qiyin va dasturchilar uftligi rasmiy tekshiruvda aniqlanishi qiyin bo‘lgan hatolarni topishi mumkin.

Lekin ikkalasi ham bir hil hatolikka yo‘l qo‘ysa o‘zaro kelishmovchilik chiqishi mumkin. Undan tashqari loyiha rivojlanishi to‘xtashini hohlamasdan juftliklar hato axtarishni rad etishi mumkin. Dasturlashni ichidagi odamlar tashqi tekshiruv chamoasi kabi obyektiv bo‘la olmaydi va ularning hatolarini topish qobilyati sihdagi yaqin munosabatlariga putir yetkazishi mumkin.

3.4. Dasturiy ta‘minot o‘lchamlari va metrikalari

Dasturiy ta‘minot o‘lchamlari deganda dasturiy ta‘minot tizimi yoki jarayonning komponentini xususiyati uchun sonli qiymat yoki profilni olish tushiniladi. Bu qiymatlar bir biri bilan va tashkilotda qabul qilingan standartlarga nisbatan taqqoslab, Siz dasturiy ta‘minot sifati xaqida xulosa chiqarishingiz yoki dasturiy ta‘minotning jarayonlari, vositalari va usullarining samaradorligini baxolashingiz mumkin.

Masalan, aytaylik, tashkilot dasturiy ta‘minotni tekshiruvchi yangi instrumentni qo‘llamoqchi. Instrumentni qo‘llashdan avval Siz dasturiy ta‘minotda xozirgi vaqtda aniqlangan defektlar miqdorini yozib olasiz. Bu instrumentning samarasini tekshirish uchun asos bo‘ladi. Instrumentni ishlatgandan keyin vaqt o‘tib siz bu jarayonni qaytarasiz. Instrument ishlatilgandan buyon ko‘proq defekt topilgan bo‘lsa, bu dasturiy ta‘minotni ratifikatsiyalash jarayoniga yordam berayotgani xaqida aytishingiz mumkin.

Dasturiy ta‘minotni o‘lchashning uzoq muddatli maqsadi shundaki, dasturiy ta‘minot sifati xaqida xulosa chiqarishda sharxlar o‘rniga o‘lchashni qo‘llashdir. Dasturiy ta‘minotni o‘lchash yo‘li bilan tizim baxolanishi ideal bo‘lardi va tizim sifati bo‘yicha metrika va ularning qiymatlari diapazoni kiritilishi mumkin bo‘lardi. Dasturiy ta‘minot yetarli sifat darajasiga ega bo‘lsa, uni sharxsiz ma‘qullash mumkin bo‘ladi. Dasturiy ta‘minot o‘lchamlari birinchi o‘ringa qo‘yilganda bu soxada ancha muvaffaqiyatlarga erishish mumkin bo‘lardi. Lekin

biz xozirda bu ideal xolatdan ancha olismiz va sifatni avtomatik baxolash yaqin kelajakda xaqiqatga aylanishining xech qanday belgisi yo‘q.

Dasturiy ta‘minot metrikasi – ob’ektiv o‘lchanishi mumkin bo‘lgan dasturiy ta‘minot tizimining, tizim xujjatining yoki rivojlantirish jarayonining xususiyatidir. Metrikalar misollari ichiga maxsulotning kodi satrlar o‘lchamida; yozma matnning o‘qilishining qulayligini o‘lchovchi Tuman indeksi (Obstrel, 1962); dasturiy maxsulotdagi topilayotgan xatoliklar miqdori; odamga tizim komponentini yaratishga kerak bo‘lgan kunlar miqdori.

Dasturiy ta‘minot metrikalari nazorat metrikasi yoki bashoratlovchi metrika bo‘lishi mumkin. Nomlar jarayonni boshqarishda yordam bergandek, bashoratlovchi metrikalar dasturiy ta‘minotning xususiyatlarini oldindan aytishga yordam beradi. Nazorat metrikalari odatda dasturiy ta‘minotning jarayonlariga bog‘liq bo‘ladi. Jarayonlar yoki nazorat metrikasini misollari – defektlar xaqida xabar berishga kerak bo‘lgan o‘rtacha vaqt va xarakat. Bashoratlovchi metrikalar bevosita dasturiy ta‘minot bilan bog‘liq bo‘ladi va ba‘zida “maxsulot metrikalari” deb nomlanishadi. Bashoratlovchi metrikalar misollari - cyclomatic modulь murakkabligi (8 bobda muxokama qilingan), dasturdagi identifikatorlarning o‘rtacha uzunligi, va dizaynda ob’ekt sinflari bilan bog‘langan belgi va amallarning miqdori.



3.9- rasm. Bashorat qilish va nazorat qilish o‘lcho‘vlari

3.9- rasmda ko‘rsatilgandek, nazorat va bashoratlovchi metrikalari boshqaruv qarorini qabul qilishga ta‘sir qilishi mumkin. Boshqaruvchilar jarayonga o‘zgartirish kiritish kerakligi xaqida qaror qabul qilishda jarayon o‘lchamlaridan foydalanadi va dasturiy ta‘minotda o‘zgartirish bajarishga ketadigan xarakatni baxolash uchun bashoratlovchi metrikalarni ishlatadi. Bu bobda men asosan bashoratlovchi metrikalarni ko‘rib chiqaman, chunki dasturiy ta‘minot kodini taxlil qilishda ularning o‘rni beqiyosdir. Nazorat metrikalarini va ular jarayonni mukammallashtirishda qanday ishlatilishini 26 bobda ko‘rib chiqamiz.

Dasturiy ta‘minot tizimida o‘lchamlar bajarilishining ikkita yo‘li bor:

1. Tizim sifatini qiymatini belgilash – tizim komponentlarini xususiyatlarini o‘lchash va bu o‘lchamlarni qo‘shish, Siz tuzatish mumkinligi kabi xususiyatlarni baxolashingiz mumkin bo‘ladi.

2. Sifati standart bo‘lmagan tizim komponentlarini identifikatsiyalash. O‘lchamlar xususiyatlari me’yordan og‘ib turuvchi aloxida komponentlarni identifikatsiyalash mumkin. Masalan, siz komponentlarni o‘lchashiz mumkin va eng murakkabini topishiz mumkin. Ularda xato bo‘lishi mumkin, chunki murakkabligi uchun ularni tushinish qiyinroq.

Afsuski, 3.2- rasmda kursatilgan dasturiy ta‘minotining ko‘p sifat xususiyatlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘lchamlarini olish qiyin. Tuzatish mumkinligi, o‘qish osonligi, foydalanishning qulay va osonligi kabi sifat belgilari – yaratuvchi va foydalanuvchilarga tegishli bo‘lgan tashqi belgilardir. Ularda foydalanuvchi tajribasi va ma‘lumoti kabi sub’ektiv omillar ta‘sir etib ular ob’ektiv o‘lchanishining ilojisi yo‘q. Bu belgilar xaqida xulosa chiqarish uchun siz dasturiy ta‘minotning ichki belgilarini (o‘lchami, murakkabligi va x.) o‘lchashingiz va ular sizni xavotirga solayotgan sifat xususiyatlari bilan bog‘likligini ko‘rib chiqishingiz kerak.

3.10- rasmda dasturiy ta‘minotning sifatini ba‘zi tashqi belgilari va ular bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan ichki belgilar ko‘rsatilgan. Diagrammada tashqi va ichki belgilar o‘rtasida munosabatlar bo‘lishi mumkinligi xaqida gapirilgan,

lekin bu belgilar qanday bog‘langanligi aytilmagan.



3.10- rasm. Ichki va tashqi tasturiy ta‘minotlar o‘rtasidagi munosabatlar

Ichki belgining o‘lchami dasturiy ta‘minotning tashqi xususiyatiga ta‘sir qilishi mumkin bo‘lsa, uchta shart bajarilishi kerak (Kitchenham, 1990):

1. Ichki xususiyat aniq o‘lchanishi kerak. Bu xar doim xam to‘g‘ridan to‘g‘ri bajarilishi mumkin emas va bu o‘lchamni bajarish uchun maxsus vositalar kerak bo‘lishi mumkin.

2. O‘lchanishi mumkin bo‘lgan belgi va qiziqtiraetgan tashqi sifat belgisi o‘rtasida bog‘liqlik bo‘lishi kerak. Shunday qilib, sifat xususiyati qiymati o‘lchanishi mumkin bo‘lgan xususiyatning qiymatiga bog‘liq bo‘lishi kerak.

3. Tashqi va ichki xususiyat o‘rtasidagi bu munosabat tushinilishi, tasdiqlanishi va qaysidur ifoda yoki modelь yordamida ko‘rsatilishi kerak. Namunaviy ifodada modelni funktsionali yig‘ilgan ma‘lumotlarni taxliliga asoslanib, modelga kiritilishi kerak bo‘lgan parametrlarni belgilaydi va mavjud ma‘lumotlar asosida bu parametrlarni kalibrovka qiladi.

Komponent murakkabligi kabi dasturiy ta‘minotning ichki xususiyatlari dasturiy ta‘minotning dastlabki kodini taxlil qiluvchi dasturiy vositalar yordamida o‘lchanadi. Bu o‘lchamlarni bajarish uchun mavjud vositalar umumiy

foydalanishdadir. Dasturiy ta‘minot komponentining murakkabligi va ishlatishda kuzatilayotgan rad etishlar miqdori o‘rtasida bog‘liqlik borligi sezilsa xam, buni ob’ektiv namoyish etish qiyin. Bu fikrni isbotlash uchun siz ko‘p komponentlar ishdagi xatolari xaqidagi ma‘lumot va dastlabki kodni taxlil qilishga ruxsatga ega bo‘lishingiz kerak. Juda kam tashkilotlar o‘z dasturiy maxsuloti xaqida ma‘lumotlarni uzoq muddat davomida yig‘ishni o‘z bo‘yniga olgan, shuning uchun rad etishlar xaqidagi ma‘lumotlarni taxlil qilishni ilojisi yo‘q.

Hewlett Packard (Greydi, 1993), AT&T (Barnard i TSena, 1994), va Nokia (Kilpi, 2001) kabi ba‘zi katta tashkilotlar 1990-chi yillarda dasturlarni metrikalarini kiritishgan.

Ular o‘z maxsulot va jarayonlarini o‘lchovlarini o‘tkazishgan va ulardan sifatni boshqarish jarayonlarida foydalanishgan. Dastur metrikalari asosida tekshiruv va ratifikatsiya jarayonlari bajarilgan. Offen va Djeffri (1997) xamda Zal va Fenton (1997) metrikalar dasturini sanoatga kiritishni batafsil muxokama etishgan.

Sanoatda dasturiy ta‘minotni tizimli o‘lchash xaqida ozgina axborot bor. Ko‘p tashkilotlar xaqiqatda xam o‘z dasturiy ta‘minoti xaqida ma‘lumot to‘playdi, bunda o‘zgartirish kiritishga oid talablar va testlashda aniqlangan defektlar miqdori ko‘riladi. Lekin ular bu tizimli o‘lchamlarni nima uchun ishlatishlari noma‘lum: dasturiy maxsulot va jarayonlarni taqqoslash uchunmi yoki o‘zgartirishlarni dasturiy ta‘minot va vositalarga ta‘sirini baxolash uchunmi. Buning murakkabligining bir nechta sababi bor:

1. Tashkilotda metrikalar dasturini ishlatilishi qancha mablag‘ni saqlab qolishi noma‘lumligi. Metrikalardan foydalanmasdan dasturiy ta‘minotni mukammallashtirishda oxirgi yillarda katta o‘zgarishlarga erishildi, shuning uchun dasturiy ta‘minotni o‘lchash va baxolashga sarflashning asoslantirish qiyin.

2. Dasturiy ta‘minot metrikalari uchun xech qanday standart xamda o‘lchash va taxlil qilishning standartlashtirilgan jarayonlar yo‘q. Ko‘p tashkilotdar dasturni o‘lchamlarini standart va vositalarigacha olib borishni rad etishmoqda.

3. Ko‘p tashkilotlarda dasturiy ta‘minot jarayonlari standartlashtirilmagan va

yaxshi aniqlanmagan, yaxshi boshqarilmaydi. SHuningdek bitta tashkilotning ichida jarayon shunchali o‘zgaruvchanki, o‘lchamlar unda ishlatilishi axamiyatsiz bo‘ladi.

4. Dasturiy ta‘minotni o‘lchash va metrikalari soxasidagi tadqiqotlarning katta qismi asosan kod va rejalashtirishni boshqarish jarayonining metrikalariga e’tibor qaratgan. Lekin xozir ERP yoki GOST tizimlarini shakllantiruvchi, yoki tezkor usullaridan foydalangan dasturiy ta‘minot ko‘proq ishlab chiqilyapti. SHuning uchun biz oldingi tadqiqotlar dasturiy ta‘minotni yaratishning bu usullariga qo‘llanishi mumkinmi bilmaymiz.

5. O‘lchamni taqdim qilinishi yuqoridagi jarayonlarga qo‘shimcha ish bo‘ladi. Bu tezkor usullarning maqsadlariga mos kelmaydi, chunki ular dasturni rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan jarayonlarni rad etadi. Tezkor usullarni ishlatayotgan tashkilotlar metrikalar dasturini qabul qilishi qiyin.

Dasturiy ta‘minotni o‘lchash va metrikalar – empirik dasturlashning asosidar (Endres va Rombach, 2003). Bu tadqiqot soxasida dasturiy ta‘minot tizimlaridagi tajribalar va real loyxalar xaqidagi ma‘lumotlar dasturlash usullari xaqida gipotezalarni shakllantirish va tasdiqlash uchun ishlatiladi. Bu soxada ishlovchi tadqiqotchilar aytishicha, dasturlash usullarining muximligi ular xaqiqatdan xam aytilgan foydani keltirishini isboti bo‘lsagina tasdiqlanadi.

Afsus, ob’ektiv o‘lchamlarni bajarish imkoni bo‘lsa xam va natijalarini ko‘rish mumkin bo‘lsa xam, qaror qabul qiluvchi shaxslar ularga ishonmasligi mumkin.

Qaror qabul qilinishiga ko‘proq yangiligi yoki amaliyotchilarda usullar qiziqish o‘yg‘onganlik darajasi kabi sub’ektiv omillar ta‘sir qiladi. Shuning uchun, men o‘ylashimcha, empirik dasturlashning dasturlash amaliyotiga ta‘sir etishiga xali ancha yillar bor.

3.4.1. Maxsulot o‘lchamlari

Maxsulot o‘lchamlari dastur tizimining ichki xarakterlarni o‘lchashda ishlatiladigan oldindan belgilanuvchi o‘lchamlar xisoblanadi. Maxsulot o‘lchamlari namunasi tizim o‘lchamini, kodlar qatori bilan o‘lchanadigan, yoki xar bir obyekt klassiga bog‘liq bo‘lgan metodlar sonini o‘z ichiga oladi. Baxtga qarshi, bo‘lim boshida tushuntirganimdek, dastur o‘lchami va sikl murakkabligi kabi oson o‘lchanishi mumkin bo‘lgan xarakterlar tushunarlilik va yashovchanlik kabi sifat xarakterlari bilan ishonchli bog‘liqlik yo‘q. Jarayonning rivojlantirilishi, ishlatilgan texnologiya va yaratilayotgan sistema turiga qarab (xarakterlarning bog‘liqligi) bog‘liqlik ham farq qiladi.

Maxsulot o‘lchamlari ikki sinfga bo‘linadi:

1. Dinamik o‘lchamlar, bajarilayotgan dasturdan xosil bo‘layotgan o‘lchashlardan yig‘iladi. Bu o‘lchamlar tizimni tekshirish davomida yig‘ilishi yoki Sistema ishga tushirilgandan keyin yig‘ilishi mumkin. Xatoliklar xabarlari soni yoki xisobni yakunlash uchun ketgan vaq misol bo‘lishi mumkin.

2. Statik o‘lchamlari, dizayn, dastur yoki dokumentatsiya kabi sistema namoyishchilarini o‘lchashlardan yig‘iladi. Statik o‘lchamlarga kodning o‘lchami va ismlarning o‘rtacha uzunligi misol bo‘ladi.

Bu o‘lcham turlari turli xil sifat atributlariga bog‘liq. Dinamik o‘lchamlar samaradorlikni va dasturning ishonchiligini belgilashda yordam beradi. Statik o‘lchamlar esa dastur tizimi va tizim komponentalarining murakkabligi, tushunarligi va yashovchanligini belgilashda yordam beradi.

Odatda dinamik o‘lchamlar va dasturning sifat xarakterlari o‘rtasida aniq bog‘liqlik bor. Aniq funksiya uchun talab etilgan bajarilish vaqtini o‘lchash va Sistema ishga tushishi uchun talab etiladigan vaqtni belgilash ancha oson. Bu to‘g‘ridan to‘g‘ri dastur samaradorligiga bog‘lanadi. Xuddi shundek, dastur xatoliklari soni va yuklanishi va dastur ishonchliligiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan xatolik turi, 15-bo‘limda muhokama qilingandek.

1. Agar zarur boʻlsa tizim tuzishda siz dasturni analiz qilishingiz kerak ya'ni tegishli komponentlarni izoxlash avtomatik generatsiya qilish(ba'zan konfiguratsion fayl deymiz) tizim yana qoʻlda tayorlash yoki oʻrnatishda oʻzgarish kirita olishni ham taminlashi lozim.

2. Uslub menejment tizimsida integratsiya tizim oʻrnatishda uslub menejment tizimsidan berilgan versiya komponentlari tekshiriloshi lozim.

3. Qoʻlda oʻrnatish: tizim oʻrnatishda siz qaysi kodlar qaytadan oʻrnatilishi kompilyatsiya boʻlishini bilishingiz kerak.

4. Oʻrnatiladigan tizimni tayorlash: tizim oʻrnatishda sizda kod fayllarni bir biri bilan boshqa fayllar kutubxona va konfiguratsion fayllarni yaratib oʻrnatish kerak.

5. Avtamotlashgan test: ba'zi oʻrnatilgan tizimda avtomatlashgan test uskunalaridan uni avtomatik ravishda tekshirish mumkin bu tekshirish oʻrnatishda yuzaga keladigon oʻzgarishlarni oldini oladi.

6. Xabar: oʻrnatilgan tizim muvoffaqiyatli yakuniga yetdi yoki yetmaganligi xabarini berilishi lozim.

7. Tizim oʻrnatilganda alohida u haqda ma'lumot beruvchi oyna boʻlishi lozim.

Tuzish yozuvlari tizim oʻrnatish toʻg'risida ma'lumotlardir u oʻz ichiga kompanentlar va ularga tegishlilik yana qoʻshimcha versiyada tashkil etilgan uskunalar haqida malumotni qamrab oladi. Oʻrnatish haqida ma'lumotlar berib borish, izoxlash tili va konfiguratsion til hisoblanadi. Konfiguratsion til oʻz ichiga konstruktorlar, tizim kompanentlari va ularga tegishli maʻlumotlarni oladi.

Kompilyasiya judayam tez jarayon boʻlib uskunalar tizim oʻrnatishda kompilatsiyalar sonini kamaytirishga yordam beradi. Ular buni kompiletsiyalangan versiyalarni borligini tekshirish orqali amalga oshirishadi. Shuning uchun qaytadan kompiletsiya qilish zarur emas.

Ikki turdagi imzodan foydalanishimiz mumkin:

1. *Madifikatsion vaqti shtampi*. Dastur kod fayl imzosi bu vaqt va kun hisoblanib, qachonki fayl indifikatsiyasi bo‘lganda ishga tushadi. Dastur kodi fayli kompanenti madifikatsiya bo‘lgandan keyin dastur kod fayli tizimga agar zarur bo‘lsa yangi kod faylini yaratadi.

Misol uchun aytaylik kompanentlar va comb.java comb.class va ular 17:03:05:02:04:2009 va 02:12:2009 da madifikatsiya bo‘lgan deylik. Bu java kodi 14-fevral 2009-yilda soat 5 dan 3 minutu 16:34:25: sekund o‘tganda madifikatsiya bo‘lganini bildiradi. Kompilatsiya versiyasi esa 12-fevral 2009-yilning 4 dan 34 minut 25 sekund o‘tgandagi madifikatsiyasini bildiradi. Bu xolatda tizim avtamatik ravishda comp.javani kompilatsiya qiladi chunki kompilatik versiyasi 12-fevraldagi dastur kodlarini o‘z ichiga oladi.

2. *Dastur kodini tekshiruvchi funksiya*. Bu dastur kodi fayli yaratilgan kundanboshlab tekshirishni boshlaydi.Bu funksiya dastur matinlarini ham kiritilgan son sifatida foydalanadi va hisoblaydi. Agar siz dastur kodini o‘zgartirsangiz, bu yangi tekshirish funksiyasini yaratadi. Siz shuni yahshi bilingki har bir dastur kod fayli uchun alohida tekshirish funksiyasi mavjud. Tekshirish funksiyasi dastur kodi komplyasiya bo‘lishdan oldin tekshirib oladi va u haqida ma‘lumotberadi. Tizim o‘rnatilgamdan keyin, yangi teglar obyekti kod faylini generatsiya qiladi. Agar kod fayli mavjud bo‘lmasa dasturdastur kodlari tizimga qo‘shilgan bo‘ladi. U holda qaytadan komplyatsiya qilish muhim hisoblanadi.

Obyekt kodining fayllari odatda versiyalanmagani uchun tizimda obyektning eng oxirgi kompilatsiya qilinga fayli tizimda saqlanadi. Bu odatda dastlabki kodning fayli bilan nomi boyicha bog‘lanadi (bu degani uning nomi dastlabki kod fayli bilan bir-xil lakin boshqa sufikas bilan). Shunday qilib COMP Java fayli Comp klas faylini generatsiyalash mumkin. Dastlabki va obyekt fayllari nomi bo‘yicha bog‘langanligi uchun bitta kataligda dastlabki kodning har xil versiyani saqlash mumkin emas chunki ular shunday nomlangan obyekt fayllarini yaratishadi.



4.12- rasm. Uzluksiz integratsiya

Nazorat yig‘indisi yondashuvi komponentni obyekt kodining har-xil versiyasini bir vaqtda quvvatlashga imkon beradi. Manba va obyekt kodini fayl nomi emas balki imzo bog‘lab turadi. Dastlabki kod va obyekt kodini fayllari bir-xil signatiraga ega bo‘ladi. Shining uchun siz komponentni qayta komplizatsiya qilganizda u vaqtincha belgili bo‘lganda obyekt kodini qayta yozmaydi. U obyetk kodini yangi faylini yaratadi va dastlabki kod imzosi bilan belgilaydi. Parallel kompliizatsiyada komponentning har-xil versiyasi bie vaqtda kompilatsiya qilinishi mumkin.

Tezkor usullarda tizim yig‘ilganda dasturiy ta‘minotdagi muammolarni aniqlash uchun avtomatlashtirilgan testlar o‘tkazilishi kerak(bazida tutin testlar deb nomlanadi). Tez-tez o‘tkaziladigan qurishlar 4.12-rasmda ko‘rsatilgandek uzliksiz integratsiya jarayonining qismi bo‘lishi mumkin. Tezkor usullar tushunchasiga binoan uzliksiz integratsiyada dastlabki kodni kichik o‘zgartirishlar miritilgandan keyin asosiy yo‘nalishga qaytish ko‘zda tutiladi. Uzluksiz integratsiyani bosqichlari quyidagilar:

1. Yaratuvchilarning ishchi joyida versiyalarni boshqarish tizimining magistral tizimini tekshiring.

2. Tizimni quring va avtomatlashtirilgan testlarni ishga tushurining, o‘rnatilgan tizim hamma testdan o‘tishini tekshiring. Agar o‘tmasa tizim yig‘ilgani noto‘g‘ri hisoblanadi va siz bazaviy tizimni kim oxirgi tekshirganini aniqlashingiz kerak bo‘ladi. Ular bu muammoni bartaraf etishiga javobgar bo‘ladilar.

3. Tizim komponentlariga o;zgartirish kiritish.

4. Xususiy ishchi o‘rinda tizimni quring va yana testdan o‘tkazing. Testdan yana o‘ta olmasa muharrirlashni davom ettiring.

5. Tizim sinovdat o‘tgandan so‘ng uni qurigan tizim deb belgilang lekin baza yabgi tizim sifatida emas.

6. Tizimni serverda quring va testlarni ishga tushiring. Siz tizimni tekshirganiz uchun boshqa komponentlar o‘zgartirilgan bo‘lsa shu ishni bajarishingiz kerak. Bu komponentlarni ham hususiy ishchi joyida tekshiring va muharrirlang.

7. Agar tizim testlarni qurilgan tizimga o‘tkazib yuborsa magistral yangi baza sifatida kiritilgan o‘zgarishlarni saqlab qolishingiz kerak.

Uzluksiz integratsiya afzalligi shundaki har-xil odamlar tomonidan yaratilgan komponentlar o‘rtasidagi muammolar ular paydo bo‘lishi bilan bartaraf etiladi. Magistral yo‘nalishidagi eng oxirgi tizim yakuniy tizim bo‘lib qoladi. Uzliksiz integratsiya yaxshi g‘oya bo‘lganiga qaramay tizimni qurishda bu yondashuvda qo‘llashni har doim ham ilojisi bo‘lmaydi. Buning sabalari quyidagilar:

1. Tizim juda katta bo‘lsa uni yaratish va testdan o‘tkazish jo‘p vaqt talab etadi. Shuning uchun uni kuniga bir necha marotaba qurish maqsadga muofiq emas.

2. Ishlab chiqarish platformasi mo‘ljallangan platformadan farq qilsa yaratilayotgan joyda tizimni sinovdan o‘tkazishni keragi yo‘q. Apparat taminoti, opetarsion tizim yoki dasturiy ta‘minotda farqlar bo‘lishi munkin. Demak tizimni testdan o‘tkazishga ko‘proq vaqt ketadi.

Katta tizim yoki platformasi boshqacha bo‘lgan tizimlar uchun uzluksiz integratsiyadan foydalanish maqsadga muofiq emas. Bu sharoitlarda tizimni har kuni yig‘ish yaxshi natija beradi buning hususiyatlari quyidagicha:

1. Tashkilot tizim komponentlarini yaratish uchun muddat belgilaydi. Agar yaratuvchilar komponentlarning yangi versiyalarini o‘sha vaqtga yetkazib berishi kerak. Komponentlar to‘liq bo‘lmasligi mumkin lekin tekshirish uchun bazi funksional imkoniyatlarga ega bo‘lishi kerak.

2. Tizimning yangi versiyasi bu komponentlarni birlashtirib to‘liq tizim shakillantiriladi.

3. Bu tizim sinov jamoasiga beriladi, ular tizimni sinovdan o‘tkazadilar. Shu paytda yaratuvchilar komponentlar ustida ishlaydi, funksional imkoniyatlar qo‘shadi va avvalgi testlarda aniqlangan hatoliklarni kuzatadi.

4. Test vaqtida aniqlanga hatolar rasmiylashtiriladi va tizim yaratuvchilariga beriladi. Ular bu hatolarni komponentning keying versiyasida bartaraf etadilar.

Dasturiy ta‘minotni tez-tez yig‘ishni afzalliklari shundaki, komponentlarni o‘zaro ta‘sirida paydo bo‘ladigan muammolar jarayonni boshida aniqlanadi. Tez-tez qurish component modullarini batafsil tekshirishni ko‘zda tutadi. Yaratuvchilar “qurishni sindirmaslik” uchun psixologik bosimda bo‘ladilar bu degani ular butun tizimni muavvaffaqqiyatsizlikka uchratadigan komponentlar versiyalarini tekshirishdan qochadilar.

Shuning uchun ular yaxshi tekshirilmagan komponentlarning yangi versiyalarini taqdim etishni hohlamaydi. Demak yaratuvchi tomonidan aniqlanishi mumkin bo‘lgan dasturiy ta‘minot hatoliklariga tizimni testlash vaqtida kamroq vaqt sarflanadi.

4.4 Foydalanishga chiqarishni boshqarish

Tizimli reliz – mijozlarga tarqatilgan dasturiy ta‘minot tizimining versiyasi. Omma uchun – dasturiy ta‘minot bozori, odatda relizning ikkita turi bor: asosiy relizlar ular yanfi funksionalaga ega bo‘ladi va kam miqdordagi relizlar ular

hatolarni to‘g‘rilaydi va e’lon qilingan foydalanuvchilar muammosini bartaraf etadi. Masalan bu kitob Apple Mac kompyuterida yozilyapti unda OS 10.5.8 operatsion tizimi o‘rnatilgan. Bu OS 10 tizimining asosiy 5 relizining qo‘shimcha 8 relizi. Asosiy relizlar sotuvchi uchun juda muhim chunki mijoz ularni pulga sotib oladi. Qo‘shimcha relizlar odatda bepul tarqatiladi.

Odatiy dasturiy ta‘minot yoki bir-xil yo‘nalishdagi dasturiy maxsulotlarning relizini boshqarish tizimi murakkab jarayondur. Tizimning maxsus relizlari har bir mijoz uchun alohida ishlab chiqilishi mumkin va alohida mijozlar bir vaqtni o‘zida tizimning bir nechta har-xil relizini boshqarishi mumkin. Bu degani dasturiy ta‘minot ishlab chiqaruvchi tashkilot maxsuslashtirilgan dasturiy maxsulotni sotib bu maxsulotning o‘nlab yoki yuzlab hat-xil relizlarini boshqarishiga to‘g‘ri keladi. Tashkilotda mijozdagi tizimning relizlari, reliz va tizim versiyalari o‘rtasidagi munosabatlar haqidagi ahborotni saqlovchi tizim bo‘lishi lozim. Muammo paydo bo‘lganda mijozga berilgan dasturiy ta‘minotni tiklash kerak bo‘lishi mumkin.

Shuning uchun tizimli reliz bajarilganda u ro‘yhatga olinishi kerak kelajakda uni yangilash imkonini kafolatlash uchun. Bu ayniqsa mashinalar kompleksini boshqaruvchi uzoq muddatga o‘rnatiladigan tizimlar uchun muhim. Mijozlar bu tizimning yagona relizini ko‘p yil davomida ishlatishi va yaratilgandan ancha keyin dasturiy ta‘minotga ma‘lum o‘zgartirishlarni kiritishni talab qilishi mumkin.

Relizni ro‘yhatga olish uchun siz bajariluvchi kodni yaratishda ishlatgan komponentning dastlabki kodining ma‘lum versiyalarini yozishingiz kerak. Siz dastlabki kod fayllarini hamma ma‘lumotlarini va komfiguratsiya fayllari nushasini saqlab qolishingiz kerak. Shuningdek siz dasturiy ta‘minot yaratishda ishlatilgan operatsion tizimlar versiyalari bilan kutubxona kompleator va boshqa instrumentlarni saqlab qolishingiz kerak. Ular huddi shu tizimni biroz kechroq sana bilan yaratishda ishlatish mumkin. Bu degani maqsadli tizimning dastlabki kodi bilan birga platform va instrumentlarni dasturiy ta‘minotning nushasini ham olishingiz kerak.

Tizimli relizni tayyorlash va tarqatish qimmatbaxo jarayondur ayniqsa dasturiy ta‘minot ommaviy bozorining uchun. Reklamani materiallarini shunday

tayyorlash kerakki mijozni tizimning yangi ko‘rinishini olishga undashi kerak. Relizga ko‘nikish uchun vaqt berish kerak. Agar relizlar ortiqcha tez chiqarilsa yoki apparat vositalarini talab qilsa mijozlar yangi relizga qiziqmasligi mumkin ayniqsa uni sotib olmoqchi bo‘lsa. Agar tizimli relizlar juda kam chiqarilsa bozordagi o‘rnini yo‘qotishi mumkin chinki mijoz alternative tizimlarga o‘tib ketishi mumkin.

Omil	Tasnif
Tizimning texnik sifati	Ko‘p mijozlar ishlatadigan tizimga muhim hatolik haqida habar berishganda hatoliklar bartaraf etilgan relizni chiqarish mukin. Unchalik muhum bo‘lmagan hatolarni bartaraf etish uchun tizimning qisimlari chiqarilishi mumkin.
Platformani o‘zgarishi	Opertasion tizimning yangi verisiyasi chiqarilganda siz ilovaning yangi relizini chiqarishingizga to‘g‘ri kelsa kerak.
Lehmanning 5 qonuni (9 bobni ko‘ring)	Bu ‘qonun’ shuni nazarda tutadiki siz tizimga kata hajmdagi yangi funksionallikni qo‘shayotgan bo‘lsangiz siz keyingi relizda qo‘shishingiz mumkin bo‘lgan funksionalning miqdorini cheklovchi hatoliklarni ham nazarda tutishingiz kerak. Shuning uchun yangi funksionali ko‘p bo‘lgan tizimli reliz odatd muammolarni bartaraf etuvchi va ishni yaxshilovchi reliz bilan kuzatiladi.
Musobaqa	Raqibingiz o‘z maxsulotlariga yangi ko‘rinishlar qo‘shgan, siz ham maxsulotingizga yangicha ko‘rinishlar qo‘shmasangiz o‘z mijozlaringizni yo‘qotishingiz mumkin.
Bozor talablari	Tashkilotning marketing bo‘limi relizlar alohida sanagacha ishlashini ta‘minlashni o‘ziga oladi.
Mijoz talablarining o‘zgartirishi	Pullik tizimlar uchun mijozlar o‘zgartirish takliflarini bildiradilar va bu o‘zgartirishlar amalga oshirilgan tizimni kutadilar.

4.13- rasm. Tizim ko‘rinishlarini rejalashtirishga ta‘sir etuvchi omollar

Tizimning yangi versiyasini qachon chiqarishni rejalashtirishda siz etiborga olishingiz kerak bo‘lgan har-xil texnik va tashkiliy omillar 4.13 rasmdda ko‘rsatilgan.

Tizimli reliz faqat tizimning bajariluvchi kodi degani emas. Relizning ichiga shuningdek quyidagilar kirishi mumkin:

- Relizni o‘rnatilishini belgilovchi konfigratsion fayllar;
- Ma‘lumotlar fayllari, tizimi muovaffaqqiyatli ishlashi uchun hatolar haqidagi habarlarni saqlovchi fayllar;
- Instialatsiya, u tizimni apparat vositalarga o‘rnatishga yordam beradi;
- Tizimga tasnif beruvchi electron va qog‘oz hujjatlar;
- Bu reliz uchun ishlab chiqilgan qadoq va reklama;

Relizni yaratish – tizimli relizning hamma kopanentlarini ichiga olgan fayl va hujjatlar to‘plamini yaratish. Dasturning bajariluvchi kodi va unga biriktirilgan ma‘lumotlar fayillari variantlarni boshqarish tizimida ro‘yhatga olinishi va relizni raqami bilan belgilanishi kerak.

Konfiguratsiya tasniflari har-xil appatar vositalari va operatsion tizimlari uchun yozilishi kerak va mijozlar ularni o‘z tizimlarida o‘rnatishi uchun yo‘riqnimalar tayyorlashi kerak. Agar mashina o‘qiydigan yo‘riqnamalar bo‘lsa ularning electron nusxalari dasturiy ta‘minot bilan berilishi kerak. Dasturni o‘rnatish skriptlari ham yozilishi kerak. Vanihoyat hamma axborot tayyor bo‘lganda dasturiy ta‘minotning savdo belgisi tayyorlanishi va mijoz yoki savdo nuqtalarida tarqatilishi kerak.

Yangi tizimli relizlarni o‘rnatilishini rejalashtirayotganda siz mijozlar yangi tizimli relizlarni doim ham o‘rnatmasligini nazarta tutishingiz kerak. Bazi foydalanuvchilar mavjut tizimda mamnun bo‘lishi mumkin. Ular yangi rrelizdagi o‘zgarishlar ortiqcha ssarf harajatga loyiq emas deb hisoblashlari mumkin. Shuning uchun tizimni yengi relizini yaratayotganda oldingi relizlarrga asoslanmasligi mumkin. Bu muammoni namoyish etish uchun quyidagi stenariyni ko‘rib chiqamiz:

1. Tizimning birinchi relizi tarqandi va foydalanishga qo‘yildi.

2. 2-reliz yangi fayillarni o‘rnatishni talab qiladi lekin mijozlar 2 relizdagi vositalarga extiyoj sezmaydi va birinchi relizni qoldiradi.

3. 3-reliz 2-relizda o‘rnatilgan fayllarni talab qiladi va o‘zida xech qanday yangi fayl olib kelmaydi.

Dasturiy ta‘minot distribyutri 3-relizga kerak bo‘lgan fayillarni hamma joyda o‘rnatilgan deb xisoblash kerak emas. Bazi joylarda birinchi relizdan bevosita 3-relizga o‘tishlari mumkin. Bazi joylarda o‘zidagi sharoitdan kelib chiqib 2-relizdagi fayllarni o‘zgartirgan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ma‘lumotlar saqlangan fayllar tizimning 3-relizi bilan tarqatilishi va o‘rnatilishi kerak.

Dasturiy ta‘minotning yangi relizlari bilan bog‘liq marketing va qadoqlashga ketadigan sarflar shunaqa kattaki maxsulot yaratuvchilar odatda yangi platformalar uchun yangi relizlar yaratadi yoki muhumyangi funksionallikni qo‘shishadi. Bu yangi dasturiy ta‘minot uchun ular foydalanuvchilarni ayiblaydilar. Mavjud relizda muammolar aniqlanganda yaratuvchilar ularni bartaraf qiluvchi qismni yaratadilar va mijozlar uni web saytdan yuklab oladi.

Yuklab olinadigan qismlarni ishlatishni muammosi shundaki, ko‘p mijozlar muammoni bartaraf etuvchi bunday tuzatishlar mavjudligini va ular nima uchun o‘rnatishligini tushunmaydilar. Buning o‘rniga ular o‘zlaridagi hato ishlaydigan tizimdan foydalanishni davom etadilar va o‘z bizneslari uchun havf yaratadilar. Bazi holatlarda tuzatishlar havfsizlikni ta‘minlash uchun ishlab chiqilganda ularni o‘rnatishda muavfaqqiyatsizlikka uchraganda, biznes tashqaridan bo‘lagn hujumlarga himoyasizligini bildiradi. Bu muammoni bartaraf etish uchun Adobe, Apple va Microsoft kabi ommaviy bozorga dasturiy ta‘minot maxsulotlarini taqdim etuvchi tashkilotlar odatda avtomatik yangilanishni yo‘la qo‘ydilar, bunda relizning yangi kichkina o‘zgarish bo‘lsa ham tizimlar o‘zi yangilanib oladi. Lekin pullik tizimlar uchun bunday qilinmaydi, chunki bu tizimlar hamma mijozlar uchun standart versiyada mavjud bo‘lmaydi.

Asosiy tushunchalar

- Konfiguratsiyani boshqarish bu dasturiy ta‘minot tizimini rivojlanishini boshqarishdur. Tizimni quvvatlashda konfiguratsiyani boshqarish jamoasi tizimga kiritilayotgan o‘zgarishlarni nazoratini ta‘minlaydi va xisobga olib boradi.

- Komfiguratsiyani boshqarishni asosiy jarayonlari o‘zgarishlarni boshqarish, versiyalarni boshqarish, tizimni qurish va relizlarni boshqarish bilan bog‘liq. Hamma jarayonlarni quvvatlash uchun dasturiy vositalar mavjud.
- O‘zgarishlarni boshqarish deganda tizimni o‘zgartirish bo‘yicha mijozlar va boshqa tegishli tomonlarni takliflarini baxolash va ular maqul kelsa tizimning yangi versiyasida qo‘llash tushuniladi.
- Versiyalarni boshqarish deganda o‘zgarish sifatida dasturiy komponentlarni har-xil versiyalarini kuzatish tushuniladi.
- Tiizmni qurish deganda komponentlarni maqsadli kompyuter tizimida ishlaydigan bajariluvchi dasturga yig‘ish jarayoni tushuniladi.
- Dasturiy ta‘minot tez-tez qayta qurilishi va yangi versiya paydo bo‘lishi bilan tajribada sinalishi kerak. Bunda oxirgi qurishdan keyin paydo bo‘lgan hat ova muammolarni aniqlash osonroq bo‘ladi.
- Tizimli relizlar o‘z ichiga bajariluvchi kod, ma‘lumotlar fayllari konfiguratsiya fayllari va hujjatlarni oladi. Relizlarni boshqarush deganda relizni muddati haqida qaror qabul qilish, tiizmning har bir relizi uchun tarqatiladigan axborot va hujjatlarni tayyorlash tushuniladi.

Nazorat savollari:

1. Agar tashkilot KB ning samarali siyosati va jarayonlarini rivojlantirmasa 5 ta paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan muammolarni ayting.

2. O‘zgartirishni boshqarish jarayonida markaziy hujjat sifatida o‘zgartirishga so‘ro‘v berish shaklidan foydalanish afzalliklari qanaqa?

3. O‘zgartirishni boshqarish jarayonlarini quvvatlash uchun vosita sifatida kiritilishi kerak bo‘lgan 6 ta muhum belgilarni tasniflab bering.

4. Komponentning har bir versiyasi nima uchun yakka ma;noda aniqlanishi kerakligini tushuntiring. Faqat versiya raqamiga asoslangan versiyalarni identifikatsiyalash sxemasidan foydalanish paydo bo;lgan muammolarni izohlang.

5. Tasavvur qiling ikkita yaratuvchi bir vaqtning o‘zida 3 ta har-xil dasturiy komponentni o‘zgartirmoqda. Ular bajargan o‘zgartirishlarni birlashtirishda qanday muammolar paydo bo‘lishu mumkin?

6. Dasturiy ta‘minot hozir har – xil joylarda ishlatilayotgan jamoa tomonidan yaratiyapti. Dasturiy ta‘minotni bunday yaratish sharoiti uchun versiyalarni boshqarish tizimida kerak bo‘lgan funksiyalarni taklif eting.

7. Tizimni uni komponentlaridan qurishda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan muammolarni tasniflab bering. Tizim host kompyuterda qaysidur mashina uchun qurilganda qanday moammolar paydo bo‘lishi mumkin?

8. Tizimni qurushga kelganda siz tushuntiringchi nima uchun katta dasturiy tizimlar ishlab chiqilgan eski kompyuterlarni saqlash kerak bo‘ladi?

9. Tizimni qurishning umumiy muammosi shundaki tizim kod va fayllar tuzilmasida ishlatilgan fayllar nomalri mashinadagindan farq ilishi mumkin. Shunga o‘xshash muammolarni oldini olish uchun dasturchi uchun qoidalar to‘plamini yarating.

10. Katta dasturiy ta‘minot tizimining relizini qurush jarayonida muhandislar inobga olishi kerak bo‘lgan 5 ta omilni tasniflang.

5. JARAYONNI MUKAMMALLASHTIRISH

Hozirgi vaqtda sanoatdan doimiy talab shunaqaki arzonroq, yaxshiroq dasturiy ta‘minot tez muddatda yetkazib berilishi lozim. Buning natijaasida ko‘plab dasturiy taminot tashkilotlari dasturiy ta‘minot jarayonlarini mukammallashtirishni sarfni kamaytirib yoki yaratish jarayonlarini tezlashtirib dasturiy ta‘minot sifatini ko‘paytirishni maqsad qilib qo‘ydilar. Jarayonni mukammallashtirish deganda mavjud jarayonlarni tushunish va maxsulot sifatini ko‘tarish hamda sarflar va yaratish vaqtini kmaytirish maqsadida ularni o‘zgartirish degani.

Jarayonni mukammallashtirish va o‘zgartishda ikkita juda katta farq qiluvchi yondashuvlar ishlatiladi:

1. Jarayon yetukligi yondashuvi, bunda tashkilotdagi loyihani boshqarish va dasturlashni yaxshi amalyotida foydalanish jarayonini yaxshilashga etibor qaratiladi. Jarayon yetuklik darajasi dasturiy ta‘minot ishlab chiqishning tashkiliy jarayonlarida qabul qilingan teznik va boshqaruv amalyotining saviyasini aks ettiradi. Bu yondashuvning asosiy maqsadlari maxsulot sifatini yaxshilash va jarayon ketishini oldindan bilish.

2. Tezkor yondashuv, bunda takroriy yaratishga va dasturiy ta‘minot jarayonlaridagi sarf harajatlarni kamaytirishga etibor qaratiladi. Tezkor usullarning asosiy hususiyatlari funksionallikka tez erishish va mijozning talablari o‘zgarishiga tez javob berishi.

Har bir yondashuv tarafdorlari ikkinchisini foydasiga nisbatan salbiy fikirdadur. Jarayon yetukligi yondashuvi boshqaruv rejasini rivojlantirishga kiritiladi va odatda “tepada” o‘zgartirishni talab qiladi, chinki kiritilgan harakatlar bevosita dasturlashga aloqasi yo‘q. Tezkor yondashuvlar kodni revojlantirishga etibor qaratadi va rasmiyatchilik hamda hujjatlarni kamaytirishga harakat qiladi.

Tezkor usullarni men 3 bobda va boshqa joyda muhokama qilganman shuning uchun bu bobda me jarayonlarni boshqarish va yetuklikka asoslangan jarayon mukammallashtirishga etibor qaratataman. Men bu yondashuvni tezkor

usullardan afzal deb xisoblamayman. Mening ishonchim komilki o‘rtacha o‘lchamdagi loyihalar uchun tezkor usullar jarayonni mukammallashtirish eng yaxshi strategiyasidur. Lekin katta tizim, kritik tizim hamda har-xil kompaniyalardan kelgan xodimlar tomonidan yaratilayotgan tizimlar uchun boshqaruv muammolari ko‘pincha qiyinchilik tug‘diradi. Katta murakkab tizimlarni loyihalash bilan shug‘ullanuvchi korxonalar uchun yetuklikka asoslangan yondashuv ko‘proq mos keladi.

3-bobda aytganimdek dasturiy ta‘minot tizimini yaratishda ishlatilgan rivijlantirish jarayoni bu tizimni sifatiga ta‘sir qiladi. Shuninguchun ko‘plab odamlar dasturiy ta‘minot ishlab chiqarish jarayonining yaxshilanishi dasturiy ta‘minotning yuqari sifatiga olib keladi deb xisoblaydi. Jarayonni mukammallashtirishning bu tushunchasi sifatni yaxshilashga yordam berishi uchun ikkinchi jaxon urushidan keyin yapon sanoati bilan ishlagan amerikalik muhandis B.E.Deming maxsuludir. Yapon sanoati mukammallshtirishning uzluksiz jarayoniga ko‘p yillar sarf qildi, buning natijasida yapon sanoatining maxsulotlarining yuqori sifati tan olindi.

Deming va boshqalar sifatni statistik nazorat qilish g‘oyasini kiritgan. Bunda maxsulot defektlari miqdori o‘lchanadi va bu difektlar jarayon bulan aloqasi aniqlanadi. Bunda maqsad shundaki o‘zgartirish jarayonlari taxlil qilinib maxsulot defectlari miqdori kamaytiriladi. Defektlarning eng past miqdoriga yetganda jarayon standartlashtiriladi va mukammallashtirishning keying sikli boshlanadi.

5.1- rasm. Dasturiy ta‘minot maxsulotiga ta‘sir etuvchi omillar

Xamfri(1988) jarayonlarni boshqarish haqidagi kitobida shu usullar dasturlashda ham ishlatilishi mumkinligini keltirib o‘tgan. U aytyapti:

“B.E.Deming ikkinchi jaxon urushidan so‘ng yapon sanoatida ishlaganda jarayonni statistik boshqarish tushinchasini sanoatga nisbatan ishlatdi. Muhum farq bo‘lsa ham, bu tushunchalar avtomabil, kamera, qo‘lsoati va po‘lat singari dasturiy ta‘minotga ham qo‘llanilishi mumkin”

Uuimiy hossalar bo‘lganiga qaramy men Xamfri ni gapini maqullamayman chunki mashinasozlik natijalari dasturiy injiniringa asonlikcha qo‘llash mumkin emas. Ishlab chiqarishda jarayon va maxsulot munosabatlari yaqqol ko‘rinib turadi. Ishlab chiqishda odatda avtomatlashtirilgan vositalar o‘rnatiladi va jarayonning maxsulotga ta‘siri tekshiriladi. Agar birortasi mashinani kalibrovkasida hatoga yo‘l qo‘ysa bu mashina chiqargan hamma maxsulotda bilinadi. Mashinalarni o‘tnatishda hatoliklarni oldini olish va tekshirishning samarali usullarini ishlatilishi maxsulot sifatini yaxshilaydi.

Bunday sifat-maxsulot munosabatlari maxsulot mavxum ekanligida ko‘rinishi qiyin va avtomatlashtirilishi mumkin bo‘lmagan intelektual jarayonlarga bog‘liq. Dasturiy ta‘minot sifatiga uning ishlab chiqarish jarayoni emas balki uni

loyihalsh jarayoni ta‘sir etadi. Bazi hollarda ishlatilayotgan jarayon maxsulot sifatining eng muhum diterminanti bo‘lishi mumkin. Lekin hususan innovatsion ilovalar uchun jarayonda qatnashayotgan odamlar ishlatilayotgan jarayondan ko‘ra sifatga ko‘proq ta‘sir qilishi mumkin.

Dasturiy maxsulotlar yoki kino hamda film kabi boshqa intelektual maxsulotlarda maxsulot sifati uning dezayniga bog‘liq bo‘lgani uchun maxsulot sifatiga ta‘sir qiluvchi 4 ta muhim omillar maxjud. Ular 5.1- rasmda ko‘rsatilgan.

Bu omillarning har-birining ta‘siri loyiha o‘lchami va turiga bog‘liq. Alohida ost tizimlardan iborat bo‘lgan juda katta tizimlarni yaratuvchi jamoalar har-xil joyda ishlaydi, bunda maxsulot sifatiga ta‘sir etuvchi asosiy omil – dasturiy ta‘minot jarayonidir. Katta loyihalardagi asosiy muammolar integratsiyalash, loyihani boshqarish va aloqalar. Odatda jamoa azolarini qobilyat va tajribasi har-xil bo‘ladi. Yaratish jarayoni bir necha yil davom etishi mumkin. Shuning uchun jamoa tarkibi o‘zgarib turadi. Loyiha hayot sikli davomida u to‘liq o‘zgarishi mumkin.

Kichik loyihalarda jamoa a‘zosi bir nechta bo‘ladi shining uchun jamoa sifati ishlatiladigan jarayondan muhumroq bo‘ladi. Demak tezkor manifest jarayonni emas odamlarning muhumligini e’lon qoladi. Agar jamoaning qobilyati va tajriba darajasi yuqori bo‘lsa maxsulot sifati ishlatiladigan jarayonga bog‘liq bo‘lmagan holda yuqori bo‘ladi. Agar jamoa tajriba va malakasi past bo‘lsa jarayon sifati hatoliklarni kamaytirishi mumkin lekin dasturiy ta‘minotning yuqori sifatini ta‘minlamaydi.

Jamoa tarkibi kichik bo‘lganda rivojlanishning yaxshi texnologiyasi juda muhim bo‘ladi. Kichik jamoa ma‘muriy pretseduralarga ko‘p vaqt ajrata olmaydi. Jamoa azolari ko‘p vaqtini tizimni loyihalash va dasturlashga sarflaydi, shuning uchun yaxshi vositalar unumdorlikka ta‘sir qiladi. Katta loyihalar uchun bazaviy darajadagi rivojlanish texnologiyasi axborot boshqaruvi muhum. Qizig‘i shundaki katta loyihalarda murakkab dastiruy vositalar kamroq axamiyatga ega. Jamoa qatnashchilari o‘z vaqtining ozroq qismini tajraba ishlariga sarflaydi va ko‘proq vaqt muloqatta bo‘lib tizimning boshqa qismlarini tushunishga harakat qiladi.

Instrumentlarni rivojlanishi bunda xech qanday axamiyatga ega bo‘lmaydi. Lekin Wikis va blog kabi aloqalarni ta‘minlovchi Web 2.0 instrumentlari tarqalgan jamoalar a‘zolari o‘rtasida olaqani anchi yaxshilashi mumkin.

Agar loyihaning byudjeti noto‘g‘ri xisoblangan bo‘lsa yoki yetkazib berish grafigini noto‘g‘ri tuzilgan bo‘lsa maxsulot sifati odamlar, jarayon yoki instrument omillariga bog‘liq bo‘lmagan holda o‘zgaradi. Yaxshi jarayon samarali bajarilishi uchun yetarlicha manbalarni talab qiladi. Bu manbalar yetarli bo‘lmasa jarayon samarali bajarilmaydi. Agar manbalar mos kelmasa faqat zo‘r odamlar loyihani qutqarib qolishi mumkin. Yetishmovchilik juda katta bo‘lsa maxsulor sifati yomonlashadi. Yaratish uchun vat yetarli bo‘lmasa yaratilgan dasturiy ta‘minotning funksionalligi past bo‘lishi mumkin, yoki ishinchlilik va ishchanlik darajasi past bo‘ladi.

Ko‘p hallarda dasturiy ta‘minot sifatidagi muammolarning haqiqiy sababi yomon boshqaruv, mos kelmagan jarayon yoki past sifatli o‘qotishda emas, ko‘pincha bu tashkilot yashab qolishi uchun raqobatning natijasi. Shartnomani olish uchun tashkilot talab qilingan harakatni to‘g‘ri baxolamaydi yoki tizimni tezroq yetkazib berishni vada qiladi. Bu majburiyatlarni bajarish maqsadida bajarilishi qiyin bo‘lgan jadval tuziladi. Demak dasturiy ta‘minot sifatiga salbiy ta‘sir yetkaziladi.

5.1 Jarayonni takomillashtirish

2-bobda men faoliyatlarning izchilligi singari dastur jarayonining umumiy g‘oyalari haqida tanishtirib o‘tganman. Men umumiy jarayonni tasvirlab, ular: sharshara modeli va qayta foydalanishga asoslangan yaratish va men eng muhim jarayon faoliyatlari haqida muhokama qilib o‘tganman. Bu umumiy jarayon bir tashkilot ichida o‘ziga xos dastur va jarayonni yaratish uchun bajariladi.

Dastur jarayonlari yakka shaxsli kompaniyalardan ko‘p millatli kompaniyalargacha barcha tashkilotlarda o‘rganiladi. Bu jarayonlar yarattilgan mahsulot turiga, tashkilot o‘lchamiga va jarayon rasmiyatchiligining darajasiga bog‘liq holda turli tiplarda bo‘ladi.

Texnologik xususiyatlari	Kalit masalalar
Tozalik	Qay darajada jarayon aniq belgilangan va qanday qiliob bu jarayonning ta'rifini oson qilib tushunish bo‘ladi?
Standartlashtirish	Bu jarayon standarti umumiy jarayonda qaysi darajada asoslangan? Bu belgilangan jarayon standartlari ba'zi mijozlar uchun muhim bo‘lishi mumkin. Bu bir xil jarayon kompaniyaning barcha joylarida qay darajada ishlatiladi?
Ko‘rinish	Jarayonining rivojlanishi tashqi paydo bo‘ladi, jarayon faoliyati, ochiq-oydin ravishda natijalari bilan tugaydimi?
Nisbatan chiqishlar	Jarayon ma'lumotlar yig'ish yoki jarayon yoki mahsulot xususiyatlari o‘lchanadi imkonini beradi, boshqa faoliyatni o‘z ichiga oladi?
O‘lchanadigan	Ma'lumotlarni to‘plash yoki mahsulot xususiyatlarini boshqa faoliyatdagi maxsulot hususiyatlari orqali o‘lchaydigan jarayon bo‘lishi kerak, shundaymi?
Qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari	Faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun dasturiy ta'minotdan qay darajada foydalanishingiz mumkin?
Maqbulligi	Dasturiy ta'minot ishlab chiqarish uchun mos jarayon, mas'ul va kerakli muhandislarni ishlatilishi emasmi?
Ishonchliligi	Jarayonda yuz berishi mumkin bo‘lgan hatoliklar yakunda mahsulotdagi hatoliklarga olib kelmasligi uchun jarayon to‘g‘ri tashkil qilinganmi?
Chidamliligi	Kutilayotgan muammolar yuz bergan taqdirda ham jarayon davom eta oladimi?
Ta‘mirlash mumkinliligi	Tashkiliy ta‘lablarning o‘zgarish yoki mukammallashtirishni hisobga olib rivojlantirish

	jarayonini o‘zgartirish mumkinmi?
Tezlilik	Bu spesifikasiyadagi tizimni yetkazib berish jarayoni qancha tez yakunlanishi mumkin?

5.2- rasm. Jarayon attributlari

Bu yerda “ideal” yoki “standart” singari o‘ziga xos tipli dastur mahsulotlarining barchasi uchun barcha tashkilotlarda ishlatsa bo‘ladigan dasturlash jarayoni yo‘q. Har bir kompaniya o‘zining o‘lchamiga, xodimlarining qobiliyatlariga, yaratilayotgan dasturning turiga, xaridor va bozor talabiga va kompaniya madaniyatiga bog‘liq holda o‘zining jarayonini yaratishi kerak.

Jarayonni yaxshilash, shuningdek, o‘ziga xos metodlar yoki uskunalarni qabul qilish yoki nashr etishdan foydalanish kabi ma‘nolarni anglatmaydi. Shunga qaramay tashkilotlar dasturning bir xil tipini yaratishda oddiylikka egalar, u yerda mahalliy tashkiliy faktorlar, jarayonga ta‘sir etuvhci standartlar bo‘ladi. Siz jarayonni mukammallashtirishda kamdan-kam muvafaqqiyatga erishasiz, agar barcha yerda qo‘llaniladigan jarayonni o‘zgartirishga urinsangiz. Siz har doim mahaliiy muhit va madaniyatni va bu jarayhonni o‘zgartirish takliflariga qanday ta‘sir ko‘rsatishini hisobga olishingiz shart.

Siz yana shuningdek mukammallashtirishni xohlayotgan jarayonni ba‘zi bor tushunchalarini ham e’tiborga olishingiz kerak. Sizning maqsadingiz dastur sifatini mukammallashtirish bo‘lishi mumkin va shuning uchun siz dastur yaratilgan va tekshirilgan yo‘lni o‘zgartiradigan yangi jarayon faoliyatlarini kiritishingiz mumkin. Siz jarayonning ba‘zi bir attributlariga qiziqishingiz mumkin va siz kompaniyangiz uchun qanday jarayon attributlar muhim ekanligiga qaror qilishingiz kerak. Jarayon attributlariga misollar mukammallashtirish nishonlari bo‘lib, 5.2-rasmda ko‘rsatilgan.



5.3- rasm. Jarayonni takomillashtirish halqasi

Bu attributlar aniq bog‘lanadi,ba‘zan ijobiy ba‘zan salbiy. Jarayon, ya‘ni yuqori tezlikli attribut tushunarli bo‘ladi. Jarayonni kuzatuvchi ishlab chiqarilgan mahsulotdan faoliyatning mavjudligiga xulosa qiladi.Boshqa tomondan ko‘rinuvchi jarayon tezlikka bog‘langan bo‘ladi. Jarayonni tayyorlash jarayon haqidagi axborotlarni ishlab chiqara oladigan odamlarni talab qiladi. Bu hujjatlarni tayyorlashni oladigan vaqt sababli dastur mahsulotini pastga tushirib yuborishi mumkin.

Bir vaqtda sodir bo‘ladigan barcha jarayon attributlarini optimizatsiyalaydigan jarayonni mukammallashtirishni bajarishni imkoni yo‘q. Misol uchun siz jarayonni tez yaratishni maqsad qilsangiz, keyin jarayon ko‘rinishini kamaytirishga majbur bo‘lasiz.Agar siz jarayonni tayyorlashni istasangiz, keyin kompaniyaning turli qismlarida qo‘lllaniladigan va tashkiliy amaliyotni aks ettiruvchi protsedura va uskunalarni qabul qilishingiz kerak. Bu jarayonning mahalliy to‘g‘ri kelishini kamaytirishi mumkin. Injenerlar ish usullarini ta‘minlash uchun standartsiz uskunalar va mahalliy protseduralarni kiritishadi.

Jarayonni mukammallashtirish jarayoni siklik jarayon 5.3-rasmda ko‘rsatilgan. U 3 ta jarayonni o‘z ichiga oladi:

1. *Jarayon o‘lchovi*. Joriy loyihaning attributlari(xususiyatlari) o‘lchanadi. Bundan maqsad jarayonni mukammallashtirishda tashkilot maqsadiga ko‘ra, o‘lchashni yaxshilash. Bu uslublar agar mukammallashtirish samarali bo‘lsa qaror qilishingizda yordam beradi.

2. *Jarayon analizi*. Joriy jarayon tahlil qilinadi va zaifligi aniqlanadi. Jarayon modellari (ba‘zan jarayon xaritalari deb ataladi) nu bosqich davomida yaratilishi mumkin bo‘lgan jarayonni tasvirlaydi. Analiz jarayon harakteristikalari shuningdek tezlik va mustahkamlik ni hisobga olish orqali markazda turishi mumkin.

3. *Jarayon o‘zgarishi*. Jarayon o‘zgarishi jarayon aniqlangan jarayon zaifligini adreslash uchun taklif qilinadi. Bu yerga o‘zgarishlarning samaraliligi haqidagi ma‘lumotlarni to‘plash uchun siklning qisqacha xulosalari kiritiladi.

Jarayondagi aniq ma‘lumotlarsiz yoki dasturni yaratishda jarayondan foydalanishsiz jarayonni mukammallashtirishning qiymatini tahlil qilishni imkoni yo‘q. O‘zgarishlar siklining birinchi qismida siz dastur mahsuloti harakteristikalari o‘lchovi va dastur jarayoni haqidagi ma‘lumotlarni to‘plash uchun jarayon faoliyatlarini kiritishingiz kerak.

Jarayonni mukammallashtirish uzoq muddatli faoliyat, har bir bosqich bir necha oylab davom etishi mumkin. Bu shuningdek davomli faoliyat bo‘lib, yangi jarayonlar kiritiladi,biznes muhiti o‘zgartiriladi.

5.2. Jarayon o‘lchovi

Jarayon o‘lchovi dastur jarayoni haqidagi miqdoriy ma‘lumotlar bo‘lib, jarayon faoliyatlarini bajarilishi uchun ketadigan vaqt hisoblanadi. Misol uchunsiz dastruni yaratish uchun talab qilingan vaqtni o‘lchashingiz mumkin. Humphrey(1989) u o‘z kitobida jarayonni mukammallashtirishda isbotlar ya‘ni jarayon o‘lchovi va mahsulot attributlari jarayonni mukammallashtirishuchun ahamiyatli hisoblanadi.U shuningdek kichik-masshtabli jarayonni mukammallashtirishda muhim rolga ega o‘lchovni taklif etadi.

Jarayon o‘lchovlari jarayon mukammallashtirilishining ta‘siri bo‘ladimi yo yo‘qmi shuni tahlil etish uchun qo‘llaniladi.Misol uchun natija va vaqt tekshirish uchun ajratiladi. Jarayonni tekshirishning samarali yaxshilanishlari natija yoki tekshirish vaqtini qisqartirishi kerak.Shunday qilib jarayon o‘lchovlari ularning o‘zida niqlanmaydi, agar mahsulot sifati yaxshilansa. Mahsulot sifati ma‘lumotlari jarayon faoliyatlariga bog‘langan va to‘plangan bo‘ladi.

Jarayonning metr o‘lchovidagi 3 xil turi bor:

1. *Tugatiladigan o‘ziga xos jarayon uchun olinadigan vaqt.* Bu jarayon uchun ajratilgan umumiy vaqt., calendar vaqti, maxsus injenerlar tomonidan jarayonda sarflangan vaqt.

2. *O‘ziga xos jarayon uchun talab qilingan resurslar*. Resurslar person-days(shaxs-kuni), sayohat narxlari,kompyuter resurslaridagi umumiy natijalarni o‘z ichiga oladi.

3. *O‘ziga xos hodisalarning bir qancha soni*. Hodisalarga misollar kodni nazoratdan o‘tkizish davomida vujudga keladigan nuqsonlarni, so‘ralgan talablar o‘zgarish sonini va o‘rtacha o‘zgartirilgan kod qatorlarini o‘z ichiga olish uchun tekshirilishi mumkin.

O‘lchovning birinchi ikkita turi agar jarayon o‘zgarishlari samaradorligi yaxshilansa yaratish uchun qo‘llaniladi. Bu yerda dasturni yaratish jarayonida o‘rnatilgan tushunchalar bor, shuningdek talablar maqbulligi, arxitekturaviy loyihaning yakunlanishi kabilar.



5.4- rasm. GQM masalasi

Siz vaqt va talab qilingan natijani bir o‘rnatilgan tushunchadan boshqasiga ko‘chirish uchun o‘lchay olasiz. O‘zgarishlar kiritilgandan so‘ng, agar jarayon o‘zgarishlari vaqtning qisqarishida muvafaqqiyatli bajarilsa, tizim attributlarining o‘lchovlari ko‘rsatiladi.

Hodisalarning o‘lchovlari dastur sifatida to‘g‘ri olib boriladi. Misol uchun dasturni nazoratdan o‘tkazishda vujudga keladigan bir qancha nuqsonlarning oshishi yaxshilangan mahsulot sifatida ehtimol aks etadi.Shunday qilib, bu keyingi mahsulot o‘lchovida tasdiqlanadi.

Jarayon o‘lchovidagi fundamental qiyinchilik-jarayonni mukammallashtirishni ta‘minlash uchun to‘planishi kerak bo‘lgan jarayon haqidagi axborotlarni bilish demakdir. Basili va Rombach (1988) ular GQM(Goal-question-metric) deb ataydigan dastur va jarayon o‘lchovida keng qo‘llaniladigan namuna(paradigma) ni taklif etishgan. Basili va Green (1993) AQSH, mahsus agentlik NASA da bu takrorlanish uzoq muddatda qanday qo‘llanilganligi, o‘lchovga asoslangan jarayon dasturini tasvirlab berishgan.

GQM paradigmasi jarayonni mukammallashtirishda 3 ta kritik savolga javob berishda yordam berishda qo‘llaniladi(5.4- rasm). Ular:

1. Jarayonni mukammallashtirishni nega kirityapmiz?

2. Mukammallashtirishni aniqlash va tahlil qilishda qanday axborotlar bizga yordam beradi?

3. Qanday jarayon va mahsulot o‘lchovlari bu axborotni ta‘minlashni talab qiladi?

Bu savollar GQM dagi abstraktsiyaga bog‘langan(maqsad-vazifalar,savollar,o‘lchovlar):

1. *Maqsad vazifalar*. Maqsad – bu shunday narsaki, tashkilot muvafaqqiyatga erishish uchun harakat qiladi. U jarayon attributlariga aloqador bo‘lmasligi kerak. Vazifalarga misollar oxiriga yetgan jarayon bosqichida, qisqa mahsulot yaratish vaqtida yoki mahsulotning ishonchliligi oshganda mukammallashtiriladi(5.5-qismda ko‘ring).

2. *Savollar*. Aniqlanadigan vazifalarga bog‘langan maxsus sohalardagi vazifalarning yaxshi tarafga o‘zgarishi.Bir vazifa javob berilishi kerak bo‘lgan bir qancha savollarga ega bo‘ladi. Savollarga misollar “bizning joriy jarayonimizdagi o‘tish joyi qayerda?”,”Mijozlar kamaytirilgan va mahsulot talabini tugatish uchun qancha vaqt talab qilinadi?” yoki “Qancha tekshiruvda vujudga kelayotgan mahsulot nuqsonlarida samarador bo‘ladi”singari bo‘lishi mumkin bo‘lgan mahsulot yaratish vaqtining vazifalariga bog‘langan bo‘ladi.

3. *O‘lchovlar*. Bular jarayonni mukammallashtirish muvafaqqiyatga erishadimi yo‘qmi tasdiqlash uchun o‘lchovlar Yuqoridagi savollarga javob berishga yordam berish uchun, siz har bir jarayon faoliyatini tugatish uchun ketadigan vaqtda, klient va mijoz o‘rtasidagi formal munosabatlarda yoki har tekshiruv ishida vujudga kelgan nuqsonlar sonida ma‘lumotlarni to‘plashingiz mumkin.

Jarayonni mukammallashtirishda GQM takrorlanishidan foydalanishning afzalligi –u mahsus jarayon aloqalaridan(savollar) tashkiliy aloqalarni (vaifa-maqsad) ajratadi. U qanday ma‘lumotlar to‘planganligini hal qilish uchun asos bilan ta‘milaydi va turli usullarda analiz qilinishi kerak bo‘lgan to‘plangan ma‘lumotlarni taklif qiladi.

GQM takrorlanishi AMI(Analyze, Measure, Improve)(Analiz, o‘lchov,yaxshilash)usulida SEI ning tugatilgan modeli bilan yaratilgan (Paulk et al., 1995). AMI metodini yaratuvchilar jarayonni mukammalllashtirish uchun pog‘onalashtirilgan takrorlanishni taklif etadilar. AMI qo‘llanmasi (Pulford et al., 1996) o‘lchovga asoslangan jarayonni mukammallashtirishda amaliy maslahat va ko‘rsatmalar bilan ta‘minlaydi.

3-bobda muhokama qilganimdek, o‘lchovlar ba‘zan shubhali bo‘ladi. Masaln, dasturdagi yozilgan nuqsonlarni tuzatish uchun ketadigan o‘rtacha vaqtni o‘lchaysiz. Bu “tozalangan” tarzda belgilangan xabar vaqti va xabar vaqtini qabul qiluvchi jamoa o‘rtasidagi vaqtdir. Siz xatoni yozib olish uchun yangi web ga asoslangan uskunalarni kiritasiz, bu uskuna biror vaqt uchun foydalanilgandan keyin kamaygan nuqsonlarni tuzatish uchun ketgan vaqtni tahlil qilasiz.

Siz nuqsonni tuzatishda qisqargan vaqtga ega xatoni yozib olish uskunalarini kiritishni tasdiqlashingiz mumkin. O‘lchovlar uchun o‘zgarishini kuzatganingizda, bu sizga tanishtirilgan jarayon o‘zgarishlariga bu o‘zgarishlarni attributlar.Shunday qilib, u mukammallashtirish haqidagi soddalashgan taxminlarni bajarish uchun xavfli.

O‘lchovdagi o‘zgarishlar biror narsani: loyiha jamoasidagi odamlar o‘zgarishiga, jarayon jadvalining o‘zgarishiga yoki menjment o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.O‘zgarishlar quyidagi kuzatuvlarni o‘z ichiga oladi:

1. Tizim boshidan qisqarishi mumkin,shuning uchun ko‘proq vaqt nuqsonlarni bartaraf etish uchun foydali bo‘lib qoladi. Bu o‘rtacha “nuqsonni tuzatish” vaqtidagi qisqarishni boshqaradi.Jarayonni mukammallashtirish asl farqni keltirib chiqarishi mumkin.

2. Yangi tizim nuqsonlarni tuzatish uchun ketadigan aniq vaqt uchun farqsiz tayyorlanishi mumkin. Lekin u axborotni yozib olishga osonroq tayyorlanadi. Shuning uchun nuqsonlarni tuzatish vaqtlari ko‘proq yangi tizim bilan aniq o‘lchanadi. Nuqsonlarni o‘rnatish o‘rtacha vaqtida aniq o‘zgarishlar bo‘lmaydi.

3. Yangi tizim kiritilishidan oldin o‘lchovlar tizimni nazoratdan o‘tkazish orqali bajariladi. Tuzatish eng oson va eng tez nuqsonlar allaqachon tuzatilgan, faqat “og‘ir nuqsonlar” tiklash uchun ko‘p vaqtni oladi. Shunday qilib, nuqsonlarni yozib olish tizimi kiritilgandan so‘ng, o‘lchovlar yangi tizimni nazoratdan o‘tkazishni boshlanishida tayyorlanadi va nuqsonlar “oson nuqsonlar ” sifatida tezda tuzatiladi.

4. Nazoratdan o‘tkazish jamoasining yangi menejeri nuqsonlardek foydalanuvchi interfeysiga xabar berish uchun jamoa a‘zolarni o‘qitadi. Bu shuni anglatadiki, ko‘p “oson nuqsonlar” tez o‘rnatilganligi haqida axborot beriladi.

O‘lchov jarayon va jarayon o‘zgarishlari haqidagi asoslarning genratsiyalsh usuli. Shunday qilib, asos jarayonni o‘zgartirish samarali bo‘lishiga ishonch hosil qilishingizdan oldin jarayon haqidagi boshqa axborot bilan birga tushuntirilishi kerak. Siz har doim o‘zgarishlarning sifatli tahlili bilan aloqada o‘lchovlardan foydalanishingiz kerak. Bu o‘zgarishlarning samaradorligida odamlarning

tassurotini olish va tanishtirilgan o‘zgarishlar haqidagi jarayonlarni odamlarg gapirib berish. Nafaqat bu jarayonga ta‘sir etishi mumkin bo‘lgan boshqa faktorlarni ko‘rsatadi. U taklif qilingan o‘zgarishlardan foydalangan jamoaga o‘lchovni va bular aniq yaratish amaliyotiga qanday ta‘sir ko‘rsatishini anglatadi.

5.3. Jarayon analizlari

Jarayon analizlari kalit harakteristikalarni tushunishga yordam berishga jarayonlarning o‘rgatilishi va qanday jarayonlar odamlar tomonidan amaliyotda bajarilishi tushuniladi. Men 5.3-rasmda jarayon analiziga olib keluvchi jarayon o‘lchovini taklif qilganman. Bu bir soddalashtirish, chunki, haqiqatda, bu faoliyatlar bir-biriga o‘ralgan. Siz o‘lchovni bilish uchun ba‘zi analizlarni yakunlashingiz kerak. Siz o‘lchangan jarayonni yanada chuqurroq tushunishni o‘rganasiz.

Jarayon analizi bir-biriga bog‘langan xususiyatlardan iborat:

1. Jarayonda o‘z ichiga olingan faoliyatlar va ular orasidagi bog‘liqliklarni tushunish.

2. Jarayon faoliyatlari va o‘lchovi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish.

3. Tashkilotdagi solishtirib bo‘ladigan jarayonlarga analiz qilayotgan jarayonlarni bog‘lash yoki bir xil tipdagi jarayonlarni benuqson qilib ko‘rsatish.

Jarayonni analizlash davomida jarayon qanday davom etayotganini tushunishga harakat qilasiz. Jarayon samarasizliklarini va muammolari haqidagi axborotlarni qidirasiz. Siz jarayon o‘lchovi haqida, jarayonni ta‘minlash uchun foydalaniladigan dastur uskunalari, jarayonga qanday tashkiliy omillar ta‘sir etishiga ham qiziqishingiz kerak. 5.5-rasmda jarayonni analizlash davomida tekshirishingiz mumkin bo‘lgan jarayon tushunchalari ko‘rsatilgan.

Eng oson qo‘llaniladigan jarayon texnikalari:

1. *Intervyu oluvchilar va intervyular*: Loyiha ustida ishlayotgan menejerlar va injenerlardan davom etish haqida so‘raladi. Javoblar shaxsiy intervyu davomida

yaxshilanadi. Quyida muhokama qilganimdek, muhokama dastur jarayon modellari atrofida strukturalanadi.

2. *Etnografik qo‘llanmalar*. Etnografik qo‘llanmalar(4-bobga qarang) inson faoliyatida dastur yaratish tabiatini tushunishda foydalanilishi mumkin.Shu kabi analizlar intervyu oluvchilar va intervyular tomonidan ko‘rsatilishi mumkin bo‘lmagan murakkablik va nozikliklarni ko‘rsatadi.

Bu takrorlanishlarning har biri o‘z yaxshi va yomon tarafiga ega. Savol beruvchiga asoslangan analizlar to‘g‘ri savol aniqlanganida tezda yakunlanadi. Agar savol nomunosib bo‘lsa,siz jarayonni tushunishni to‘liqsiz yakunlashingiz mumkin.Bundan tashqari bu analizlar tahlil shaklidek paydo bo‘ladi. Injenerlar siz eshitishni istaganjarayon haqidagi haqiqatga javob berishadi.

Jarayonlar yo‘nalishi	**Savollar**
Qabul qilish va standartlashtirish	Jarayon tashkilot orqali ro‘yhatga olingan va standartlashtirilganmi? Agar bunday bo‘lmasa har qaysi o‘zgartirish jarayonning yagona holati uchunmi? Agar jarayonlar standartlashtirilmagan bo‘lsa bitta jarayonni o‘zgartirilishi korxinaning bishqa joydagi shunga o‘xshash jarayonlarga qo‘llanilmaydimi?
